
**VOLUME 10, OCTOBER 2026**
ISSN: 3060-4958







# The Lingua Spectrum




UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY

**MORE INFO:**

www.lingvospektr.uz

t.me/thelinguaspectrum

# The Lingua Spectrum Journal

**Volume 10**

(2026 yil oktabr)

TOSHKENT-2026

**Ma’sul muharrir:**
Raxmonov Azizxon Bositxonovich – p.f.d., professor O‘zDJTU Rus filologiyasi fakulteti dekani

**To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:**
Satibaldiyev Erkinjon Kamilovich – O‘zDJTU Ingliz tilini o‘qitish metodikasi №3 kafedrasi katta o‘qituvchisi

# LINGUISTICS

The Lingua Spectrum
Cogito, ergo sum

LINGVISTIKA 5
ЛИНГВИСТИКА 377

# A comparative analysis of the cognitive-semantic features of conceptual metaphors in English and Uzbek

**Sulaymanova Nilufar Jabbarovna**
nilufarculeymanova@gmail.com
DSc, Professor,
Samarkand State Institute of Foreign Languages

**Annotation** *The article presents a comparative cognitive-semantic study of conceptual metaphor as one of the fundamental categories of cognitive linguistics based on English and Uzbek linguistic material. Particular attention is paid to the ways reality is conceptualized through linguistic units, the representation of human experience by means of metaphorical models, and the mechanisms underlying the formation of linguistic worldviews in different linguocultural communities. Universal and culture-specific characteristics of conceptual metaphors associated with time, life, emotions, success, difficulties, knowledge, interpersonal relations, and space are compared in English and Uzbek. The study employs conceptual, comparative-typological, cognitive-semantic, and contextual methods of analysis. The findings demonstrate that numerous metaphorical models in both languages derive from universal bodily and cognitive experience, whereas their linguistic realization is substantially influenced by national culture, traditions, values, and social experience. The same conceptual source domain may therefore receive different lexical and phraseological representations in English and Uzbek. Comparative analysis also reveals similarities and differences in the semantic organization of metaphorical expressions. The study emphasizes that conceptual metaphors reflect the interaction between language, cognition, culture, and human experience.*

**Keywords** *Cognitive linguistics, conceptual metaphor, cognitive semantics, source domain, target domain, linguistic worldview*

# Ingliz va o‘zbek tillarida konseptual metaforalarning kognitiv-semantik xususiyatlarining qiyosiy tahlili

**Sulaymanova Nilufar Jabbarovna**
nilufarculeymanova@gmail.com
DSc, professor,
Samarqand davlat chet tillar instituti

**Annotatsiya** *Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslikning asosiy kategoriyalaridan biri bo‘lgan konseptual metafora hodisasi ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida qiyosiy-kognitiv jihatdan tadqiq etiladi. Til birliklarida voqelikning konseptuallashuvi, inson tajribasining metaforik modellar vositasida ifodalanishi hamda turli lisoniy jamoalarga xos olam manzarasining shakllanish mexanizmlari tahlil qilinadi. Ingliz va o‘zbek tillarida vaqt, hayot, his-tuyg‘u, muvaffaqiyat, qiyinchilik, bilim, inson munosabatlari va makon bilan bog‘liq konseptual metaforalarning universal hamda milliy-madaniy xususiyatlari qiyoslanadi. Tadqiqotda konseptual tahlil, qiyosiy-tipologik, kognitiv-semantik va kontekstual tahlil usullaridan foydalaniladi. Tahlil natijalari ikki tildagi metaforik modellarning muayyan qismi insonning universal jismoniy va kognitiv tajribasiga asoslanishini ko‘rsatadi. Ayrim metaforik modellarning verballashuvida esa milliy madaniyat, an’ana, qadriyat va ijtimoiy tajriba muhim ahamiyat kasb etishi aniqlanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida bir xil*

*konseptual manba sohasi turli leksik-frazeologik vositalar orqali ifodalanishi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, metaforik birliklarning semantik mazmuni, ularning kontekstda namoyon bo'lish xususiyatlari va madaniy asoslari qiyosiy jihatdan yoritiladi. Konseptual metaforalarni qiyosiy o'rganish ikki tilning lisoniy olam manzarasidagi umumiy kognitiv qonuniyatlar va milliy-madaniy farqlarni aniqlash, shuningdek, til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi uzviy munosabatlarni chuqurroq ochib berish imkonini berishi ta'kidlanadi.*

**Kalit so'zlar** *Kognitiv tilshunoslik, konseptual metafora, kognitiv semantika, manba soha, maqsad soha, lisoniy olam manzarasi*

## Сопоставительный анализ когнитивно-семантических особенностей концептуальных метафор в английском и узбекском языках

**Сулайманова Нилуфар Жаббаровна**
*nilufarculeymanova@gmail.com*
*Доктор наук (DSc), профессор,*
*Самаркандский государственный*
*институт иностранных языков*

**Аннотация** *В статье проводится сопоставительное когнитивно-семантическое исследование концептуальной метафоры как одной из основных категорий когнитивной лингвистики на материале английского и узбекского языков. Анализируются способы концептуализации действительности в языковых единицах, механизмы репрезентации человеческого опыта посредством метафорических моделей и особенности формирования языковой картины мира различных лингвокультурных сообществ. Сопоставляются универсальные и национально-культурные характеристики концептуальных метафор времени, жизни, эмоций, успеха, трудностей, знания, человеческих отношений и пространства в английском и узбекском языках. Используются методы концептуального, сопоставительно-типологического, когнитивно-семантического и контекстуального анализа. Установлено, что значительная часть метафорических моделей двух языков обусловлена универсальным телесным и когнитивным опытом человека, тогда как особенности их языковой реализации определяются культурой, традициями, ценностями и социальным опытом соответствующего народа.*

**Ключевые слова** *Когнитивная лингвистика, концептуальная метафора, когнитивная семантика, сфера-источник, сфера-цель, языковая картина мира*

Kognitiv tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikning inson, til va tafakkur munosabatlarini yagona tizim doirasida o'rganuvchi yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvda til faqat axborot uzatish yoki obyektiv voqelikni nomlash vositasi sifatida emas, balki insonning borliq haqidagi bilimlarini shakllantirish,

tizimlashtirish, saqlash va ifodalash mexanizmi sifatida talqin etiladi. Shu nuqtayi nazardan tildagi har qanday semantik hodisa ortida inson tajribasi, uning voqelikni idrok etish usuli va muayyan madaniy muhitda shakllangan bilim tizimi mavjud bo'ladi. Kognitiv tilshunoslikning markaziy tushunchalari bo'lgan konsept, kategoriyalashtirish, konseptuallashtirish, freym, ssenariy, prototip va konseptual metafora til bilan tafakkur o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tushuntirish imkonini beradi (Lakoff & Johnson, 1980; 17-18; Evans & Green, 2006; 12-15).

Kognitiv yondashuv til birliklarining ma'nosini tayyor va o'zgarmas semantik hodisa sifatida emas, balki insonning kognitiv faoliyati bilan bog'liq dinamik tuzilma sifatida ko'radi. R. Langaker ta'kidlaganidek, til strukturalari insonning umumiy kognitiv qobiliyatlaridan ajralgan holda mavjud emas; grammatik va leksik ma'nolar ham konseptuallashtirish jarayonining muayyan ko'rinishlaridir (Langacker, 1987; 5-7). Bunday qarash tillararo qiyosiy tadqiqotlar uchun ayniqsa muhim. Chunki ikki tilda bir xil yoki yaqin obyektiv voqelik turlicha konseptuallashtirilishi, kategoriyalashtirilishi va verballashtirilishi mumkin.

Qiyosiy tilshunoslikda an'anaviy ravishda fonetik, leksik, grammatik va frazeologik tizimlarning o'xshash hamda farqli jihatlari aniqlangan bo'lsa, kognitiv paradigma qiyos obyektini yanada kengaytirdi. Endi tillararo tadqiqotda faqat shakl va ma'no emas, balki ushbu ma'nolarning ortida turgan konseptual modellar ham qiyoslanadi. Masalan, ingliz tilidagi *time flies, save time, waste time, spend time* kabi birliklar vaqtning harakatlanuvchi obyekt yoki qimmatli resurs sifatida konseptuallashtirilishini ko'rsatadi. O'zbek tilida vaqt uchib o'tdi, vaqtni tejamoq, vaqtni bekor o'tkazmoq, vaqtni sarflamoq kabi birliklar ham shunga yaqin kognitiv modellarni namoyon etadi. Bu holat inson tajribasidagi umumiy kognitiv mexanizmlarning turli tillarda parallel ifodalanishidan dalolat beradi.

Konseptual metafora nazariyasining shakllanishida J. Lakoff va M. Jonsonning ilmiy qarashlari alohida o'rin tutadi. Olimlar metaforani faqat badiiy nutqqa xos uslubiy vosita emas, balki inson tafakkurining fundamental mexanizmi sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, inson bir konseptual sohani boshqa konseptual soha orqali anglaydi; bunda nisbatan aniq, hissiy tajribaga yaqin soha abstraktroq hodisani tushunish uchun kognitiv asos vazifasini bajaradi (Lakoff & Johnson, 1980; 3-6). Shu tariqa, konseptual metaforada ikki asosiy komponent – manba soha (source domain) va maqsad soha (target domain) o'zaro munosabatga kirishadi.

Masalan*, Life is a journey – hayot sayohatdir* konseptual modelida safar manba soha, hayot esa maqsad soha hisoblanadi. Safarga xos yo'l, manzil, to'siq, yo'nalish, hamroh, ortga qaytish, oldinga harakatlanish kabi tushunchalar inson hayotini anglash uchun kognitiv model vazifasini bajaradi. Ingliz tilida *life is a journey, choose your path, we have come a long way, he is at a crossroads in his life, move forward in life* kabi ifodalar ushbu modelni verballashtiradi. O'zbek tilida esa *hayot yo'li, hayotda o'z yo'lini topmoq, uzoq yo'lni bosib o'tmoq, hayot chorrahasida qolmoq, oldinga intilmoq, yo'li ochiq bo'lmoq* kabi birliklar mavjud. Ikki tildagi o'xshashlik insonning makonda harakatlanish tajribasi hayot jarayonini konseptuallashtirish uchun universal kognitiv asoslardan biri ekanini ko'rsatadi.

Biroq metaforik modelning umumiyligi uning lisoniy ifodasi to'liq bir xil bo'lishini anglatmaydi. Masalan, o'zbek tilida *yo'li ochiq, yo'lingiz oq bo'lsin, yo'li to'sildi, yo'ldan urmoq* kabi birikmalar nafaqat harakat, balki taqdir, omad, axloqiy me'yor va ijtimoiy munosabatlar haqidagi madaniy tasavvurlarni ham ifodalaydi. Ingliz tilida *clear the way, get in someone's way, lose one's way, go one's own way* kabi o'xshash fazoviy modellar mavjud bo'lsa-da, ularning pragmatik va madaniy assotsiatsiyalari har doim ham o'zbekcha birliklarga to'liq mos kelmaydi. Demak, konseptual darajadagi

o‘xshashlik leksik-frazeologik darajada mutlaq ekvivalentlikni kafolatlamaydi.

Insonning vertikal makon haqidagi tajribasi ham ikki tilda ko‘plab abstrakt konseptlarni shakllantiradi. J. Lakoff va M. Jonson bunday modellarni orientatsion metaforalar sifatida izohlaydi (Lakoff & Johnson, 1980; 14-21). *Good is up / bad is down, happy is up / sad is down, high status is up / low status is down* kabi kognitiv modellar ingliz tilida *high spirits, cheer up, feel down, fall into depression, rise to power, high position* kabi birliklarda kuzatiladi. O‘zbek tilida kayfiyati ko‘tarildi, ruhi tushdi, tushkunlikka tushdi, martabasi ko‘tarildi, yuqori lavozim, obro‘si tushdi kabi ifodalar aynan shu vertikal kognitiv sxemaning mavjudligini ko‘rsatadi.

Bu o‘xshashlik tasodifiy emas. Inson tanasining vertikal holati, sog‘lom va faol insonning tik turishi, kasallik yoki ruhiy tushkunlikda esa harakat va gavda holatining pasayishi kabi tajribalar metaforik konseptuallashtirishning jismoniy asosini tashkil etadi. M.Jonson bunday kognitiv tuzilmalarni obraz-sxemalar bilan bog‘laydi (Johnson, 1987; 18-23). *Up-down, in-out, front-back, center-periphery, source-path-goal* kabi obraz-sxemalar insonning tana va makon bilan munosabatidan shakllanadi hamda keyinchalik abstrakt tushunchalarni anglashga ko‘chiriladi.

Ingliz va o‘zbek tillarida his-tuyg‘ularning konseptuallashuvi ham qiziqarli qiyosiy material beradi. *Anger is heat – g‘azab issiqlikdir* modeli ingliz tilida *boiling with anger, his blood boiled, hot-tempered, let off steam* kabi birliklarda ifodalanadi. O‘zbek tilida *qoni qaynadi, jahli chiqdi, ichi qizidi, g‘azabi qaynadi* kabi ifodalar ushbu konseptual bog‘lanishning mavjudligini ko‘rsatadi. Ikkala tilda ham kuchli g‘azab organizmda haroratning oshishi, qon aylanishining tezlashishi kabi fiziologik holatlar bilan bog‘langanligi uchun metaforik model umuminsoniy tajribaga tayanadi.

Shu bilan birga, his-tuyg‘ularni ifodalashda milliy-madaniy xususiyatlar ham namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida *yuragi ezildi, yuragi siqildi, yuragi orqasiga tortdi, yuragi yorilgudek bo‘ldi, ko‘ngli tog‘dek ko‘tarildi, ko‘ngli cho‘kdi* kabi birliklarda yurak va ayniqsa ko‘ngil konseptlari emotsional tajribaning muhim markazi hisoblanadi. Ingliz tilida heart ham his-tuyg‘ular bilan faol bog‘lanadi: *broken heart, from the bottom of my heart, lose heart, take heart*. Biroq o‘zbekcha ko‘ngilning semantik-kognitiv qamrovi ingliz tilida bitta leksema bilan to‘liq ifodalanmaydi. Kontekstga qarab u *heart, mind, mood, feeling, desire, spirit* kabi turli vositalar orqali berilishi mumkin. Bu holat ikki til konseptosferasi o‘rtasidagi asimmetriyani namoyon qiladi.

Kognitiv qiyoslashda somatik komponentli frazeologizmlar ayniqsa muhim material hisoblanadi. Chunki inson tanasi dunyoni anglashning eng qadimiy va bevosita manbalaridan biridir. Masalan, ingliz tilida *keep an eye on, turn a blind eye, open one's eyes, see eye to eye* kabi birliklarda ko‘z bilish, nazorat qilish, anglash va munosabat konseptlari bilan bog‘lanadi. O‘zbek tilida *ko‘z-quloq bo‘lmoq, ko‘z yummoq, ko‘zi ochildi, ko‘zi yetmoq, ko‘zga tashlanmoq* kabi birliklar ham ko‘rish a’zosining fizik funksiyasidan abstrakt kognitiv sohalarga semantik ko‘chishni namoyon etadi.

*Knowing is seeing – bilish ko‘rishdir* konseptual modeli ikki tilda ham mahsuldor. Ingliz tilida *I see what you mean, look at the problem differently, a clear explanation, his ideas are obscure* kabi birliklar tushunish jarayonini vizual idrok orqali konseptuallashtiradi. O‘zbek tilida masalaning mohiyatini ko‘rmoq, ko‘zi ochilmoq, ravshan bo‘lmoq, aniq ko‘rsatmoq kabi ifodalar ham bilim va ko‘rish sohalarining konseptual aloqasini ko‘rsatadi.

Bilim konseptining boshqa muhim modeli *Mind is a container – ong/tafakkur idishdir* tarzida namoyon bo‘ladi. Ingliz tilida fill your mind with ideas, keep something in mind, get something out of your mind, an empty mind kabi birliklarda ong ma’lumot saqlanadigan makon sifatida tasavvur qilinadi. O‘zbek tilida *xayoliga keldi, yodida saqladi, boshiga fikr keldi, miyasiga quymoq, esidan chiqarmoq* kabi birliklar aynan bir xil bo‘lmasa-

da, bilimning inson ichki makonida joylashishi yoki undan chiqishi haqidagi konseptual modelni aks ettiradi.

Vaqt konsepti ikki tilning kognitiv tizimida alohida ahamiyatga ega. Ingliz tilida vaqt iqtisodiy resurs sifatida juda faol konseptuallashadi: *spend time, save time, waste time, invest time, budget your time*. Bu birliklar *Time is money / time is a valuable resource* modelini hosil qiladi (Lakoff & Johnson, 1980; 7-9). O‘zbek tilida ham vaqtni sarflamoq, vaqtni tejamoq, vaqtni bekorga ketkazmoq, vaqtini ayamoq kabi birikmalar mavjud. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy hayot ta’sirida ushbu model o‘zbek tilida ham faol qo‘llanadi.

Biroq vaqtning milliy-madaniy konseptuallashuvi faqat iqtisodiy model bilan cheklanmaydi. O‘zbek tilida *har narsaning o‘z vaqti bor, vaqti-soati keldi, zamona zayli, payt poylamoq* kabi ifodalar vaqtni ijtimoiy va taqdiriy jarayonlar bilan bog‘laydi. Ingliz tilida *time will tell, the right time, bide one's time, in due course* kabi birliklar o‘xshash ma’no munosabatlarini ifodalaydi. Shunga qaramay, har bir birlikning madaniy assotsiatsiyasi va diskursiv qo‘llanishi tegishli til jamoasining tarixiy tajribasi bilan belgilanadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida muvaffaqiyat konsepti ham harakat va vertikallik orqali ifodalanadi. Ingliz tilida *climb the career ladder, reach the top, rise to success, move ahead kabi birliklar success is up* va *success is forward movement* modellarini namoyon qiladi. O‘zbek tilida *yuqori cho‘qqilarni zabt etmoq, martabasi ko‘tarilmoq, oldinga chiqmoq, yuksak natijaga erishmoq* kabi ifodalar mavjud. Bu misollarda ham makon insonning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini anglash uchun asosiy manba sohalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Qiyinchilik konseptida esa harakatga to‘sqinlik qiluvchi jism yoki yuk modeli yetakchilik qiladi. Ingliz tilida *face an obstacle, overcome difficulties, a heavy burden, carry the weight of responsibility* kabi birliklar qiyinchilikni to‘siq yoki og‘ir yuk sifatida konseptuallashtiradi. O‘zbek tilida *to‘siqni yengib o‘tmoq, og‘ir yukni yelkasiga olmoq, mas’uliyat yuki, qiyinchilikni boshdan kechirmoq* kabi ifodalar shu modellarga yaqin. Demak, insonning fizik harakat, og‘irlik va qarshilik bilan bog‘liq tajribasi ijtimoiy-psixologik muammolarni konseptuallashtirishda universal manba vazifasini bajaradi.

Kognitiv metaforalarning milliy xususiyatini aniqlashda tabiat va turmush tarzi bilan bog‘liq obrazlar ham muhim. O‘zbek lingvomadaniyatida *oq yo‘l, dasturxoni ochiq, rizqi butun, baraka topmoq, ildiz otmoq* kabi birliklar muayyan madaniy bilimlar tizimiga tayanadi. Masalan, oq yo‘l birikmasida rang va makon konseptlari birlashib, ezgu tilak, omad va xavfsiz harakat ma’nosini hosil qiladi. Uni ingliz tiliga so‘zma-so‘z *white road* tarzida tarjima qilish konseptual mazmunni bermaydi; kontekstga qarab *good luck* yoki *have a safe journey* kabi funksional ekvivalent talab qilinadi. Bu esa metaforalarni qiyoslashda leksik shakldan tashqari konseptual va pragmatik mazmunni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Ingliz tilida ham muayyan madaniy tajriba bilan bog‘liq metaforik birliklar mavjud. *A level playing field, move the goalposts, hit below the belt, the ball is in your court* kabi ifodalar sportga oid manba sohalar orqali ijtimoiy munosabatlar va qaror qabul qilish jarayonlarini konseptuallashtiradi. O‘zbek tilida ularning to‘liq obrazli ekvivalenti har doim mavjud emas. Tarjimada teng sharoit, shartlarni o‘zgartirib yubormoq, nopok usuldan foydalanmoq, endi qaror sizga bog‘liq kabi mazmuniy ifodalar qo‘llanishi mumkin. Bunda manba sohadagi sport obrazi yo‘qolishi, maqsad sohaning ma’nosi esa saqlanishi mumkin.

Mazkur holat konseptual ekvivalentlik va lisoniy ekvivalentlik bir xil tushuncha emasligini ko‘rsatadi. Ikki tilda bir xil konseptual model mavjud bo‘lib, uning ifoda vositalari farq qilishi mumkin; aksincha, tashqi shaklan o‘xshash metaforalar turli madaniy konnotatsiyalarga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun qiyosiy kognitiv tadqiqotda kamida uch darajani farqlash maqsadga muvofiq: konseptual

model darajasi, leksik-frazeologik realizatsiya darajasi va lingvomadaniy-pragmatik mazmun darajasi.

Freym semantikasi ham ingliz va o‘zbek tillarini kognitiv qiyoslashda muhim nazariy asoslardan biridir. Ch. Fillmorning fikricha, so‘z ma’nosini uning ortida turgan muayyan bilim strukturasi – freymsiz to‘liq anglash mumkin emas (Fillmore, 1982; 111-137). Masalan, ingliz tilidagi *wedding* va o‘zbek tilidagi to‘y leksemalari umumiy jihatdan nikoh marosimi bilan bog‘lanishi mumkin, ammo o‘zbekcha to‘y konsepti nikohdan tashqari sunnat to‘yi, beshik to‘yi va boshqa ijtimoiy marosimlarni ham qamrab olishi mumkin. Demak, lug‘aviy ekvivalentlar ortidagi freymlar hajmi va ichki tuzilishi farqlanadi.

Xuddi shuningdek, o‘zbek tilidagi mahalla konsepti va ingliz tilidagi neighbourhood leksemasi o‘rtasida qisman semantik moslik mavjud bo‘lsa-da, ularning kognitiv freymlari bir xil emas. Mahalla o‘zbek madaniy tajribasida hududiy birlikdan tashqari qo‘shnichilik, ijtimoiy nazorat, o‘zaro yordam, marosimlar, jamoaviy munosabatlar va institutsional funksiyalar bilan bog‘langan keng bilim strukturasini faollashtiradi. Neighbourhood esa muayyan kontekstlarda ushbu belgilarning faqat bir qismini qamrab olishi mumkin. Bunday misollar qiyosiy kognitiv tilshunoslikda lakunarlik hodisasini ham muhim tadqiqot obyektiga aylantiradi.

Konseptual metafora va freymlar o‘rtasida ham uzviy bog‘liqlik mavjud. Metafora bir freymga xos elementlarni boshqa konseptual sohaga ko‘chiradi. Argument is war modelida bahs maqsad soha bo‘lsa, urush freymi manba soha vazifasini bajaradi. Ingliz tilida attack an argument, defend a position, win an argument, shoot down an idea kabi ifodalar mavjud. O‘zbek tilida fikriga hujum qilmoq, o‘z pozitsiyasini himoya qilmoq, bahsda g‘olib chiqmoq, dalilini yo‘qqa chiqarmoq kabi birliklarda ham urush va raqobat freymi faollashadi. Biroq bahs madaniyati, muloqot normalari va ijtimoiy ierarxiya turlicha bo‘lganligi uchun mazkur metaforalarning pragmatik chastotasi va diskursiv vazifalari farqlanishi mumkin.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan kategoriyalashtirish ham qiyosiy tadqiqot uchun muhimdir. An’anaviy yondashuvda kategoriya a’zolari umumiy belgilar asosida teng maqomda qaralgan bo‘lsa, prototip nazariyasi kategoriyaning markaziy va periferik a’zolari mavjudligini ko‘rsatadi. E.Rosh tadqiqotlari inson kategoriyalari ko‘p hollarda qat’iy chegaralar emas, balki prototipik tuzilish asosida tashkil topishini asoslagan (Rosch, 1978; 27-48). Bu nazariya turli tillarda rang, qarindoshlik, o‘simlik, hayvon, his-tuyg‘u va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyalarni qiyoslashda katta ahamiyatga ega.

Masalan, ingliz tilidagi family va o‘zbek tilidagi oila asosan bir-biriga ekvivalent deb qaralsa-da, ular bilan bog‘liq prototipik tasavvurlar madaniy jihatdan farq qilishi mumkin. O‘zbek lingvomadaniyatida oila konsepti keng qarindoshlik munosabatlari, avlodlararo aloqa, kattalarga hurmat va jamoaviy mas’uliyat kabi belgilar bilan kuchli bog‘langan. Inglizzabon madaniyatlarning barchasini bir xil deb umumlashtirish mumkin emas, ammo ayrim diskurslarda family yadroviy oila modeli bilan kuchliroq bog‘lanishi mumkin. Shuning uchun qiyosiy tahlilda til fakti bilan madaniyat haqidagi umumlashtirishni farqlash, xulosani konkret korpus yoki kontekst materiallari asosida berish zarur.

Ingliz va o‘zbek tillarida harakat fe’llarining metaforik kengayishi ham kognitiv qonuniyatlarni namoyon etadi. Ingliz tilida *fall in love, fall into despair, run a company, grasp an idea* kabi birliklarda jismoniy harakat yoki harakatga yaqin faoliyat abstrakt jarayonlarga ko‘chiriladi. O‘zbek tilida *sevgiga tushmoq, tushkunlikka tushmoq, ishni yuritmoq, fikrni jamlab olmoq* kabi ifodalarda ham shunga o‘xshash mexanizm kuzatiladi. Ayrim hollarda hatto harakat yo‘nalishi mos keladi: inglizcha *fall into depression* va o‘zbekcha tushkunlikka tushmoq vertikal pastga harakatni salbiy psixologik holat bilan bog‘laydi.

Shu bilan birga, tilning grammatik tuzilishi metaforik modellarning lisoniy namoyon bo'lishiga ta'sir qiladi. Ingliz tili analitik xususiyatlari kuchli bo'lgan til sifatida predloglar va frazali fe'llar orqali fazoviy sxemalarni faol ifodalaydi: *fall into, get over, move on, break out, go through*. O'zbek tili agglutinativ til bo'lganligi sababli kelishik qo'shimchalari, ko'makchilar va qo'shma fe'llar orqali shunga o'xshash munosabatlarni ifodalaydi: *tushkunlikka tushmoq, qiyinchilikdan o'tmoq, muammodan chiqmoq, oldinga bormoq*. Bu farq konseptual mazmun bilan uning grammatik kodlanishi o'rtasidagi munosabatni ochib beradi.

Metaforalarning qiyosiy kognitiv tahlili tarjimashunoslik uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Tarjimon metaforik birlikni faqat lug'aviy darajada emas, uning ortidagi konseptual model nuqtayi nazaridan ham anglashi zarur. Agar ikki tilda bir xil konseptual metafora mavjud bo'lsa, obrazni saqlash imkoniyati yuqori bo'ladi. Masalan, *waste time – vaqtni bekorga sarflamoq, heart of stone – tosh yurak, open one's eyes – ko'zini ochmoq* kabi birliklarda konseptual moslik sezilarli. Ammo milliy-madaniy metaforalarda funksional yoki pragmatik ekvivalentni tanlash talab etiladi.

Qiyosiy tahlil natijalari konseptual metaforalarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkinligini ko'rsatadi. Birinchi guruhga konseptual va lisoniy jihatdan yuqori darajada mos keladigan modellar kiradi: *life is a journey, happy is up, difficulties are obstacles, knowing is seeing*. Ikkinchi guruhda konseptual model umumiy, ammo uning lisoniy realizatsiyasi turlicha bo'ladi. Uchinchi guruhni esa muayyan madaniy tajriba bilan chambarchas bog'langan va boshqa tilda to'liq konseptual ekvivalentga ega bo'lmagan modellar tashkil etadi. Bunday tasnif ingliz va o'zbek tillarida metaforik konseptuallashtirishning universallik va milliylik nisbatini aniqlash imkonini beradi.

Kognitiv yondashuv qiyosiy tilshunoslikning vazifasini ham kengaytiradi. Bunda tadqiqotchi "ikki tilda qaysi birliklar bir-biriga mos?" degan savol bilan cheklanmaydi. "Nima uchun bu tillarda muayyan hodisa aynan shu tarzda ifodalangan?", "Qaysi kognitiv model ushbu ifodaga asos bo'lgan?", "Mazkur model universal jismoniy tajribaga yoki milliy madaniy tajribaga tayanadimi?", "Bir tildagi konseptual tuzilma ikkinchi tilda qanday qayta tashkil etiladi?" kabi savollar markaziy ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, ingliz va o'zbek tillarini kognitiv qiyoslash faqat nazariy tilshunoslik uchun emas, balki xorijiy til o'qitish, tarjima, leksikografiya va madaniyatlararo kommunikatsiya uchun ham ahamiyatlidir. Chet tilini o'rganuvchi shaxs alohida so'z va grammatik konstruksiyalarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, mazkur til sohiblarining voqelikni qanday konseptuallashtirishini ham anglashi lozim. Masalan, idiomalarni so'zma-so'z yodlashdan ko'ra ularni umumiy konseptual metafora asosida guruhlash o'quvchiga bir qator birliklarni yagona kognitiv model doirasida tushunish imkonini beradi.

Kognitiv qiyosiy tahlil leksikografiyada ham yangi imkoniyatlarni ochadi. An'anaviy ikki tilli lug'atlarda leksemaning tarjima ekvivalenti keltiriladi, ammo uning konseptual freymi yoki madaniy konnotatsiyalari doimo ham ochib berilmaydi. Kognitiv prinsiplarga asoslangan inglizcha-o'zbekcha lug'atlarda leksik birliklarning konseptual sohasi, prototipik ma'nosi, metaforik kengayishlari va madaniy xususiyatlarini ko'rsatish til o'rganuvchilar uchun samarali bo'lishi mumkin.

Umuman, ingliz va o'zbek tillaridagi konseptual metaforalarni qiyosiy o'rganish til, tafakkur va madaniyat munosabatlarining murakkab tabiatini ochib beradi. Tahlildan ma'lum bo'ladiki, ikki tildagi ko'plab metaforik modellar insonning umumiy jismoniy tajribasiga tayanadi. Makonda yuqori va pastni idrok etish, harakatlanish, yo'l bosish, to'siqni yengish, jismlarni konteyner ichida tasavvur qilish, ko'rish va bilish o'rtasida aloqa o'rnatish kabi tajribalar universal kognitiv sxemalarni shakllantiradi. Shu sababli hayot – safar, yaxshi

– yuqori, bilish – ko‘rish, qiyinchilik – to‘siq kabi modellarning ingliz va o‘zbek tillarida parallel namoyon bo‘lishi tabiiy holdir.

Biroq universal kognitiv asoslar tillarda mutlaq bir xil lisoniy manzarani yuzaga keltirmaydi. Har bir til jamoasining tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy tuzilishi, urf-odatlari, qadriyatlari, tabiiy muhiti va kommunikativ an’analari konseptual modellarning leksik-frazeologik shakllanishiga ta’sir qiladi. Shu sababli o‘zbek tilidagi *ko‘ngil, mahalla, oq yo‘l, baraka* singari birliklar yoki ingliz tilida muayyan sport va boshqa madaniy freymlarga asoslangan iboralarning konseptual mazmuni ikkinchi tilda bitta leksik ekvivalent bilan to‘liq berilmasligi mumkin.

Tadqiqot asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, ingliz va o‘zbek tillarini qiyosiy-kognitiv o‘rganishda leksik ekvivalentlikdan konseptual ekvivalentlikka o‘tish zarur. Birliklarning tashqi shaklidagi o‘xshashlik yoki farqning o‘zi yetarli emas; ularning ortidagi manba va maqsad sohalar, obraz-sxemalar, freymlar, prototiplar va madaniy bilimlar tizimi ham hisobga olinishi lozim. Konseptual metafora shu ma’noda ikki tildagi lisoniy olam manzarasini qiyoslashning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida konseptual metaforalarning qiyosiy tahlili, bir tomondan, inson tafakkurining universal kognitiv mexanizmlarini aniqlashga, ikkinchi tomondan, har bir tilning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Kelgusida mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni katta hajmli parallel va milliy korpuslar asosida olib borish, metaforik modellarning chastotasi, diskursiv taqsimlanishi va janrlarga ko‘ra farqlarini statistik tahlil qilish maqsadga muvofiq. Shuningdek, badiiy, siyosiy, ta’limiy, tibbiy va raqamli media diskurslarida konseptual metaforalarni alohida qiyoslash ingliz va o‘zbek tillarining kognitiv tizimi haqida yanada aniq va empirik asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

**References:**

1. Evans, V., & Green, M. (2006). *Cognitive linguistics: An introduction*. Edinburgh University Press.
2. Fillmore, C. J. (1982). Frame semantics. In The Linguistic Society of Korea (Ed.), *Linguistics in the morning calm*. 111–137. Hanshin Publishing.
3. Johnson, M. (1987). *The body in the mind: The bodily basis of meaning, imagination, and reason*. University of Chicago Press.
4. Lakoff, G. (1987). *Women, fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind*. University of Chicago Press.
5. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
6. Langacker, R. W. (1987). *Foundations of cognitive grammar: Vol. 1. Theoretical prerequisites*. Stanford University Press.
7. Rosch, E. (1978). Principles of categorization. In E. Rosch & B. B. Lloyd (Eds.), *Cognition and categorization*. 27–48. Lawrence Erlbaum Associates.

# Linguocognitive and linguocultural features of figurative toponyms in Uzbek and English

**Allayarova Malika Tolibovna**
malika.allayarova@icloud.com
*Student of the Faculty of Philology and Translation Studies,*
*Samarkand State Institute of Foreign Languages*

**Annotation** *This study provides a comprehensive comparative analysis of the lexical-semantic, cognitive, and axiological characteristics of figurative toponyms in the Uzbek and English languages. Particular attention is paid to the principal components shaping the semantic structure of place names, including colour terms, landscape features, flora and fauna, anthropogenic factors, and evaluative elements. The study examines the role of cognitive mechanisms such as metaphor and metonymy in the formation of figurative toponyms and explains their significance in the perception and conceptualization of reality and the construction of a linguistic worldview. Common features and culturally specific characteristics of the Uzbek and English toponymic systems are considered from a comparative perspective. The denotative and connotative meanings of place names, as well as their associative and axiological content, are also analysed. Based on a synthesis of existing classification approaches, the study argues for a multilayered model that integrates semantic, cognitive, linguistic, and cultural characteristics rather than relying on a single classification criterion. The findings demonstrate that figurative toponyms are significant linguistic units reflecting the interaction of language, cognition, culture, and national worldview.*

**Keywords** *Figurative toponym, toponymy, cognitive semantics, metaphor, metonymy, axiology, linguistic worldview, linguoculturology*

# O‘zbek va ingliz tillarida obrazli toponimlarning llingvokognitiv va lingvokulturologik xususiyatlari

**Allayarova Malika Tolibovna**
malika.allayarova@icloud.com
*Filologiya va tarjimashunoslik fakulteti talabasi,*
*Samarqand davlat chet tillar instituti*

**Annotatsiya** *Mazkur ilmiy tadqiqotda o‘zbek va ingliz tillaridagi obrazli toponimlarning leksik-semantik, kognitiv hamda aksiologik xususiyatlari qiyosiy yondashuv asosida kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda toponimlarning semantik strukturasini shakllantiruvchi asosiy komponentlar, xususan, rang, landshaft, flora va fauna, antropogen omillar hamda baholovchi birliklarning o‘rni yoritiladi. Obrazli toponimlarning vujudga kelishida metafora va metonimiya kabi kognitiv mexanizmlarning ahamiyati ochib berilib, ularning insonning borliqni idrok etishi, konseptuallashtirishi va lingvistik dunyoqarashini shakllantirishdagi vazifasi asoslanadi. O‘zbek va ingliz toponimik tizimlaridagi umumiy hamda milliy-madaniy xususiyatlar qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, toponimlarning denotativ va konnotativ ma’nolari, assotsiativ hamda aksiologik mazmuni, ularning milliy tafakkur va madaniy qadriyatlar bilan bog‘liqligi tahlil etiladi. Mavjud tasnifiy yondashuvlarni umumlashtirish asosida obrazli toponimlarni faqat bitta semantik mezon bilan cheklamasdan, ularning lingvistik, kognitiv va madaniy xususiyatlarini*

*uyg‘unlashtiruvchi ko‘p qatlamli model asosida o‘rganish zarurligi asoslanadi. Bunday yondashuv toponimik birliklarning mazmuniy tuzilishini yanada chuqurroq ochish, ikki tilga xos o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari obrazli toponimlarning til, tafakkur, milliy madaniyat va insonning olamni idrok etish jarayoni o‘rtasidagi uzviy munosabatni ifodalovchi muhim lingvistik birlik ekanligini ko‘rsatadi.*

**Kalit so‘zlar** *Obrazli toponim, toponimika, kognitiv semantika, metafora, metonimiya, aksiologiya, lingvistik dunyoqarash, lingvokulturologiya*

## Лингвокогнитивные и лингвокультурологические особенности образных топонимов в узбекском и английском языках

**Аллаярова Малика Толибовна**
*malika.allayarova@icloud.com*
*Студент(ка) факультета филологии и переводоведения,*
*Самаркандский государственный институт иностранных языков*

**Аннотация** *В данной научной статье проводится комплексный сопоставительный анализ лексико-семантических, когнитивных и аксиологических особенностей образных топонимов узбекского и английского языков. Особое внимание уделяется основным компонентам, формирующим семантическую структуру топонимов, в частности цветовым обозначениям, ландшафтным характеристикам, названиям флоры и фауны, антропогенным факторам и оценочным элементам. Раскрывается роль таких когнитивных механизмов, как метафора и метонимия, в образовании топонимических единиц, а также определяется их значение в процессах восприятия, концептуализации действительности и формирования языковой картины мира. В сопоставительном аспекте рассматриваются общие и национально-культурные особенности узбекской и английской топонимических систем. Анализируются денотативные и коннотативные значения, ассоциативное и аксиологическое содержание географических названий, а также их связь с национальным мышлением и культурными ценностями. На основе обобщения существующих классификационных подходов обосновывается необходимость изучения образных топонимов в рамках многоуровневой модели, объединяющей их семантические, когнитивные, лингвистические и культурные характеристики. Такой подход позволяет глубже раскрыть содержательную структуру топонимических единиц и определить сходства и различия между двумя языками. Результаты исследования показывают, что образные топонимы являются значимыми языковыми единицами, отражающими тесную взаимосвязь языка, мышления, национальной культуры и особенностей восприятия человеком окружающей действительности.*

**Ключевые слова** *Образный топоним, топонимика, когнитивная семантика, метафора, метонимия, аксиология, языковая картина мира, лингвокультурология*

O‘zbek va ingliz tillaridagi obrazli toponimlar inson tafakkurining lingvistik ifodasi sifatida nafaqat nominativ birliklar, balki murakkab semantik va madaniy strukturalar sifatida namoyon bo‘ladi. Toponimika fanining rivojlanishi bilan birga geografik nomlarning faqat joyni belgilash vositasi emasligi, balki ular orqali insonning atrof-muhitni idrok etishi, baholashi va konseptuallashtirish jarayoni aks etishi tobora yaqqol namoyon bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, obrazli toponimlar ushbu jarayonning eng faol shakli bo‘lib, ular o‘zida metaforik tafakkur, assotsiativ idrok va aksiologik baholashni mujassam etadi.

Toponimlarning leksik-semantik tasnifi masalasi tilshunoslikda muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada A.H. Smith geografik nomlarning tarkibiy elementlarini semantik jihatdan tahlil qilish orqali ularni tizimlashtirish zarurligini ta’kidlaydi (Smith, 1956). Uning fikricha, toponimlar o‘z ichida muayyan semantik komponentlarni saqlaydi va ular orqali tarixiy hamda tabiiy muhit haqida ma’lumot beradi. Ushbu yondashuv obrazli toponimlarga ham to‘liq tatbiq etiladi, chunki ular aynan shu semantik komponentlarning kuchli ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

V.A. Nikonov toponimlarni semantik motivatsiyasiga ko‘ra tasniflash zarurligini qayd etib, ularning aksariyati inson tafakkuridagi obrazlar asosida shakllanishini ta’kidlaydi (Nikonov, 1965). Bu fikr obrazli toponimlarning mohiyatini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Darhaqiqat, inson muayyan geografik obyektni nomlashda uning eng muhim, ko‘zga tashlanadigan yoki hissiy jihatdan ta’sir qiluvchi belgilarini tanlaydi va shu asosda nom yaratadi. Bu jarayon esa toponimlarning leksik-semantik tuzilmasini belgilaydi.

Obrazli toponimlarning leksik-semantik tasnifini amalga oshirishda, avvalo, ularning asosiy semantik komponentlarini aniqlash zarur. Birinchi navbatda, rang semantikasi asosidagi toponimlar alohida guruhni tashkil etadi. O‘zbek tilida *“Oqtepa”, “Qoradaryo”, “Qiziltepa”* kabi nomlar keng tarqalgan bo‘lsa, ingliz tilida *“Blackpool”, “Greenwich”, “Whitehaven”* kabi toponimlar uchraydi. Rang komponenti bu yerda nafaqat vizual belgi sifatida, balki aksiologik baho ifodachisi sifatida ham xizmat qiladi. Masalan, *“oq”* komponenti poklik va ijobiylikni bildirsa, *“qora”* ko‘pincha chuqurlik yoki xavf bilan bog‘liq assotsiatsiyalarni keltirib chiqaradi. Bu holat rang semantikasining universal va madaniy xususiyatlarini bir vaqtning o‘zida aks ettiradi.

Ikkinchi muhim guruh – landshaft va geografik xususiyatlarga asoslangan obrazli toponimlardir. Bu guruhga kiruvchi nomlar insonning atrof-muhitni bevosita idrok etishi bilan bog‘liq. Masalan, o‘zbek tilidagi *“Toshkent”, “Balandtog‘”, “Chilonzor”* kabi nomlar obyektning fizik xususiyatlarini aks ettiradi. Ingliz tilida esa *“Oxford”, “Cambridge”, “Highland”* kabi toponimlar shu guruhga kiradi. A.H. Smith bu turdagi toponimlarni eng qadimiy qatlam sifatida baholab, ularning insonning amaliy ehtiyojlari bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi (Smith, 1956). Bu fikrni kengaytirgan holda aytish mumkinki, landshaft asosidagi toponimlar inson va tabiat o‘rtasidagi bevosita aloqaning lingvistik ifodasidir.

Uchinchi guruh – flora va fauna bilan bog‘liq obrazli toponimlar. O‘zbek tilida *“Chilonzor”, “Bodomzor”, “Qamishli”* kabi nomlar uchrasa, ingliz tilida *“Oakwood”, “Foxhill”, “Deerfield”* kabi toponimlar mavjud. Bu turdagi nomlar insonning ekologik tafakkuri va tabiat bilan uyg‘unligini aks ettiradi. Shu jihatdan ular ekologik axborotni ham o‘zida mujassam etadi.

To‘rtinchi guruh – antropogen omillar asosidagi toponimlar. Bu guruhga kiruvchi nomlar inson faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ular ko‘pincha kasb, ijtimoiy tuzilma yoki tarixiy voqealarni aks ettiradi. Ingliz tilidagi *“Baker Street”, “Kingston”, “Sheffield”* kabi nomlar bunga misol bo‘la oladi. O‘zbek tilida

esa *"Paxtakor", "Dehqonobod"* kabi toponimlar ushbu guruhni tashkil etadi. Bu turdagi nomlar inson faoliyatining til orqali aks etishini ko'rsatadi.

Beshinchi guruh – aksiologik va baholovchi komponentlarga ega obrazli toponimlardir. N.D. Arutyunova baholash kategoriyasining til tizimidagi o'rnini ta'kidlab, uning kommunikativ ahamiyatini alohida qayd etadi (Arutyunova, 1988). Obrazli toponimlarda bu jihat ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, *"Go'zaltepa", "Yaxshikent"* kabi nomlar ijobiy bahoni ifodalaydi, ingliz tilidagi *"Pleasant Valley", "Fairview"* kabi toponimlar ham shunday funksiyani bajaradi.

Oltinchi guruh – metaforik asosdagi toponimlardir. G. Lakoff va M. Johnsonning konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, metafora inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biridir (Lakoff, Johnson, 1980). Bu jarayon toponimiyada ham yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, *"Oltinsoy"* yoki *"Silverstone"* kabi nomlar real xususiyatdan ko'ra, obrazli bahoni ifodalaydi.

E.S. Kubryakova tilni kognitiv tizim sifatida talqin qilib, unda bilimlarning kategoriyalashuvi muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi (Kubryakova, 2004). Shu nuqtayi nazardan qaraganda, obrazli toponimlarning leksik-semantik tasnifi inson tafakkuridagi kategoriyalashuv jarayonini aks ettiradi. Ya'ni, inson borliqni muayyan semantik guruhlarga ajratib, ularni til orqali ifodalaydi.

Yu.M. Lotman madaniyatni belgilar tizimi sifatida talqin qilib, unda tilning markaziy rolini ko'rsatadi (Lotman, 1992). Obrazli toponimlar esa ushbu tizimning muhim elementi bo'lib, ular orqali madaniy kodlar uzatiladi. Shu bois ularning tasnifi nafaqat lingvistik, balki madaniy ahamiyatga ham ega.

Menimcha, obrazli toponimlarning leksik-semantik tasnifi faqat bir mezon asosida emas, balki ko'p qatlamli model asosida amalga oshirilishi zarur. Chunki ko'plab toponimlar bir vaqtning o'zida bir nechta semantik guruhga tegishli bo'lishi mumkin. Masalan, *"Qoratepa"* bir vaqtning o'zida rang va landshaft belgilarini o'zida mujassam etadi. Bu esa toponimlarning murakkab semantik tabiatini ko'rsatadi.

Shuningdek, zamonaviy toponimik jarayonlar ham ushbu tasnifni qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Globalizatsiya sharoitida yangi toponimlar ko'pincha sun'iy ravishda yaratiladi va ular an'anaviy obrazlilikdan farq qiladi. Bu esa toponimikaning dinamik tizim ekanini ko'rsatadi va yangi ilmiy yondashuvlarni talab etadi.

Obrazli toponimlarning leksik-semantik tasnifi masalasini yanada chuqurlashtirish uchun ularning semantik strukturasidagi ichki qatlamlarni ham tahlil qilish zarur bo'ladi. Chunki har qanday toponim tashqi shakl jihatidan oddiy ko'rinsa-da, uning ichki mazmuni ko'p komponentli va ko'p darajali tizimni tashkil etadi. Bu jihat ayniqsa obrazli toponimlarda yaqqol namoyon bo'ladi, chunki ularda nominativlik bilan bir qatorda konnotativ va assotsiativ ma'nolar ham mavjud.

Toponimlarning semantik tuzilmasida denotativ va konnotativ komponentlar o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Denotativ komponent obyektning bevosita nomini bildirsa, konnotativ komponent esa unga yuklangan qo'shimcha ma'no, baho va assotsiatsiyalarni ifodalaydi. Masalan, *"Qiziltepa"* toponimida *"qizil"* komponenti denotativ jihatdan rangni bildirsa-da, konnotativ jihatdan u issiqlik, energiya yoki tarixiy-siyosiy mazmunni ham ifodalashi mumkin. Ingliz tilidagi *"Black Forest"* yoki *"Green Valley"* kabi toponimlarda ham ayni jarayon kuzatiladi. Bu esa obrazli toponimlarning ko'p qatlamli semantik tabiatini ko'rsatadi.

V.A. Nikonov toponimlarning semantik strukturasini tahlil qilar ekan, ularning ko'pchiligi tarixiy qatlamlarga ega ekanini ta'kidlaydi, ya'ni bir toponim turli davrlarda turlicha talqin qilinishi mumkin (Nikonov, 1965). Bu holat obrazli toponimlarning dinamik xususiyatini ko'rsatadi. Masalan, dastlab faqat geografik belgi sifatida yaratilgan nom keyinchalik madaniy yoki ramziy ma'no kasb etishi mumkin. Shu jihatdan qaraganda,

toponimlar semantik evolyutsiyaga ega birliklar sifatida o‘rganilishi zarur.

Obrazli toponimlarning leksik-semantik tasnifida yana bir muhim jihat – ularning motivatsiya darajasidir. Ba’zi toponimlar to‘liq motivatsiyalangan bo‘lib, ularning ma’nosi aniq va tushunarli bo‘ladi, masalan, *“Balandtog‘”* yoki *“Greenhill”*. Boshqa toponimlar esa qisman motivatsiyalangan yoki hatto demotivatsiyaga uchragan bo‘lishi mumkin, ya’ni ularning asl ma’nosi vaqt o‘tishi bilan unutilgan. A.H. Smith bu jarayonni toponimlarning tarixiy rivojlanishi bilan bog‘lab, ularning etimologik tahlilini muhim deb hisoblaydi (Smith, 1956).

E.S. Kubryakova tomonidan ilgari surilgan kognitiv yondashuvga ko‘ra, til birliklari inson tafakkuridagi konseptual strukturalarning aksidir (Kubryakova, 2004). Shu nuqtayi nazardan qaraganda, obrazli toponimlarning tasnifi inson tafakkuridagi kategoriyalar tizimini aks ettiradi. Ya’ni, inson borliqni rang, shakl, funksiya, baho kabi mezonlar asosida tasniflaydi va bu tasnif til orqali ifodalanadi. Demak, toponimlar inson ongidagi konseptual xaritaning lingvistik modeli hisoblanadi.

Metafora va metonimiya obrazli toponimlarning shakllanishida asosiy kognitiv mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi. G. Lakoff va M. Johnson metaforani faqat stilistik vosita emas, balki tafakkur shakli sifatida talqin qiladi (Lakoff, Johnson, 1980). Bu fikr toponimlarga ham to‘liq taalluqli. Masalan, *“Oltinsoy”* nomi real oltin mavjudligini emas, balki boylik va qadr-qimmatni ifodalaydi. Ingliz tilidagi *“Silverstone”* ham shunga o‘xshash metaforik asosga ega. Metonimik toponimlarda esa obyekt uning bir qismi yoki unga aloqador unsur orqali nomlanadi, masalan, *“Chilonzor”* daraxt nomi orqali hududni ifodalaydi.

N.D. Arutyunova baholash kategoriyasining til tizimidagi rolini tahlil qilib, uning inson faoliyatini yo‘naltiruvchi funksiyasini ta’kidlaydi (Arutyunova, 1988). Obrazli toponimlarda bu jihat ayniqsa muhimdir, chunki ular orqali inson muayyan hududga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat bildiradi. Masalan, *“Yaxshikent”* yoki *“Go‘zaltepa”* kabi nomlar ijobiy bahoni ifodalasa, *“Achchiqko‘l”* yoki *“Qorabotqoq”* kabi nomlar salbiy assotsiatsiyalarni keltirib chiqaradi. Bu esa toponimlarning pragmatik funksiyasini ko‘rsatadi.

Yu.M. Lotman madaniyatni belgilar tizimi sifatida talqin qilib, unda til orqali axborot uzatilishini asosiy mexanizm sifatida ko‘rsatadi (Lotman, 1992). Obrazli toponimlar esa ushbu axborotning muhim tashuvchisi hisoblanadi. Ular orqali nafaqat geografik ma’lumot, balki madaniy qadriyatlar, tarixiy voqealar va kollektiv xotira ham uzatiladi. Shu bois toponimlarni faqat lingvistik birlik sifatida emas, balki madaniy fenomen sifatida ham o‘rganish zarur.

Menimcha, o‘zbek va ingliz tillaridagi obrazli toponimlarning leksik-semantik tasnifi masalasida asosiy muammo ularning ko‘p qatlamli tabiatini yetarlicha hisobga olmaslik bilan bog‘liq. Ko‘plab tadqiqotlarda toponimlar faqat bitta mezon asosida tasniflanadi, holbuki real til materialida bir toponim bir vaqtning o‘zida bir nechta semantik guruhga tegishli bo‘lishi mumkin. Shu bois kompleks, integrativ yondashuv zarur.

Shuningdek, qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida obrazli toponimlar ko‘proq tabiiy muhit va ekologik belgilar asosida shakllangan bo‘lsa, ingliz tilida antropogen va tarixiy omillar nisbatan ustunroq. Bu esa har ikki xalqning tarixiy rivojlanish yo‘li va mentaliteti bilan izohlanadi. O‘zbek toponimiyasida tabiat bilan uyg‘unlik, ingliz toponimiyasida esa ijtimoiy faoliyat aks etadi.

Zamonaviy toponimik jarayonlar ham ushbu tasnifga yangicha qarashni talab etadi. Globalizatsiya natijasida ko‘plab yangi nomlar paydo bo‘lib, ular ko‘pincha sun’iy va marketingga asoslangan bo‘ladi. Bu esa an’anaviy obrazli toponimlarning semantik chuqurligini kamaytiradi. Shu bois tarixiy toponimlarni saqlash va ularni ilmiy

jihatdan o‘rganish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘zbek va ingliz tillaridagi obrazli toponimlarning leksik-semantik tasnifi ularning murakkab semantik tuzilmasini ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu tasnif orqali inson tafakkuri, madaniyati va tarixiy tajribasining lingvistik ifodasi sifatida toponimlarning mohiyati yanada chuqurroq anglanadi. Obrazli toponimlar til tizimining eng boy va ko‘p qirrali qatlamlaridan biri bo‘lib, ularni kompleks yondashuv asosida o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir.

Obrazli toponimlarning leksik-semantik tasnifini yanada mukammalroq anglash uchun ularning semantik qatlamlari bilan bir qatorda funksional yuklamasini ham chuqur tahlil qilish zarur bo‘ladi. Chunki har qanday obrazli toponim faqatgina nomlash vositasi sifatida emas, balki kommunikativ jarayonda faol ishtirok etuvchi semantik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, obrazli toponimlarning funksional xususiyatlari ularning leksik-semantik tasnifi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu ikki jihat o‘zaro integratsiyada o‘rganilishi lozim.

Toponimlarning kommunikativ funksiyasi, avvalo, ularning informativlik darajasi bilan belgilanadi. Obrazli toponimlar ko‘pincha o‘zida muayyan geografik obyekt haqida qo‘shimcha axborotni ham saqlaydi. Masalan, *“Sho‘rko‘l”* toponimi suvning sho‘r ekanini bildirsa, *“Yashilvodiy”* nomi hududning sero‘t va yashil ekaniga ishora qiladi. Ingliz tilidagi *“Blackwater”* yoki *“Dryhill”* kabi nomlar ham ayni informativ funksiyani bajaradi. Bu esa obrazli toponimlarning inson hayotida amaliy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, obrazli toponimlar orientatsion funksiyani ham bajaradi. Ya’ni ular insonning makonda yo‘nalishini aniqlashga yordam beradi. Bunda ayniqsa landshaft va rang semantikasi asosidagi toponimlar muhim rol o‘ynaydi. Masalan, *“Oqtepa”* yoki *“Balandtog‘”* kabi nomlar nafaqat obyektni bildiradi, balki uning boshqa obyektlarga nisbatan joylashuvini ham anglatadi. Bu jihat toponimlarning pragmatik funksiyasi bilan ham bog‘liq.

Obrazli toponimlarning yana bir muhim funksiyasi – aksiologik funksiyadir. Bu funksiya orqali toponimlar inson ongida muayyan baholovchi tasavvurlarni shakllantiradi. N.D. Arutyunova ta’kidlaganidek, baholash kategoriyasi tilning ajralmas qismi bo‘lib, u kommunikativ jarayonda muhim rol o‘ynaydi (Arutyunova, 1988). Masalan, *“Go‘zaltepa”*, *“Yaxshikent”* kabi nomlar ijobiy bahoni ifodalasa, *“Qorabotqoq”* yoki *“Achchiqko‘l”* kabi nomlar salbiy bahoni bildiradi. Bu esa toponimlarning inson xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini ochib beradi.

Kognitiv nuqtayi nazardan qaraganda, obrazli toponimlar inson tafakkuridagi konseptual tizimning aksidir. E.S. Kubryakova tilni bilimlarni saqlash va uzatish vositasi sifatida talqin qilib, unda konseptualizatsiya jarayonining muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi (Kubryakova, 2004). Obrazli toponimlar orqali inson borliqni muayyan kategoriyalar asosida idrok etadi va bu idrok til orqali mustahkamlanadi. Masalan, rang asosidagi toponimlar insonning rang kategoriyalari orqali borliqni tasniflashini ko‘rsatadi.

Metaforik va metonimik mexanizmlar obrazli toponimlarning semantik tuzilmasida markaziy o‘rin tutadi. G. Lakoff va M. Johnson metaforani tafakkur mexanizmi sifatida talqin qilib, uning til birliklarida keng qo‘llanilishini asoslab beradi (Lakoff, Johnson, 1980). Bu jarayon toponimiyada ham yaqqol ko‘rinadi. Masalan, *“Oltinsoy”* yoki *“Silverstone”* kabi nomlar real xususiyatni emas, balki obrazli bahoni ifodalaydi. Metonimik toponimlarda esa obyekt uning bir qismi orqali nomlanadi, bu esa iqtisodiy va lingvistik jihatdan tejamkorlikni ta’minlaydi.

O‘zbek va ingliz toponimiyasini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilda obrazli toponimlarning asosiy semantik guruhlari o‘xshash bo‘lsa-da, ularning ustuvorlik darajasi farqlanadi. O‘zbek tilida

tabiiy muhit, landshaft va ekologik belgilar asosidagi toponimlar ko‘proq uchrasa, ingliz tilida antropogen va tarixiy omillar ustunlik qiladi. Bu farq har ikki xalqning tarixiy taraqqiyoti va madaniy xususiyatlari bilan bog‘liq.

V.A. Nikonov toponimlarni o‘rganishda tarixiy omillarning muhimligini ta’kidlab, ularning semantik evolyutsiyasini hisobga olish zarurligini qayd etadi (Nikonov, 1965). Darhaqiqat, ko‘plab toponimlar vaqt o‘tishi bilan o‘zining dastlabki ma’nosini yo‘qotib, yangi semantik yuklama kasb etadi. Bu esa toponimlarning dinamik tizim ekanini ko‘rsatadi.

Yu.M. Lotman madaniyatni belgilar tizimi sifatida talqin qilib, unda tilning asosiy rolini ko‘rsatadi (Lotman, 1992). Obrazli toponimlar esa ushbu tizimda madaniy axborotni saqlovchi va uzatuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ular orqali tarixiy voqealar, ijtimoiy jarayonlar va madaniy qadriyatlar avloddan-avlodga uzatiladi.

Menimcha, obrazli toponimlarning leksik-semantik tasnifini yanada mukammallashtirish uchun ularni ko‘p darajali model asosida o‘rganish zarur. Bu modelda semantik, kognitiv va aksiologik komponentlar birgalikda hisobga olinishi lozim. Ayniqsa, bir toponimning bir nechta semantik guruhga tegishli bo‘lishi mumkinligini e’tiborga olish muhimdir.

Shuningdek, zamonaviy davrda toponimlarning sun’iy ravishda yaratilishi ham ushbu tasnifga ta’sir ko‘rsatmoqda. Yangi nomlar ko‘pincha marketing yoki siyosiy maqsadlarda yaratiladi va ular an’anaviy obrazlilikdan farq qiladi. Bu esa toponimikaning yangi bosqichga o‘tayotganini ko‘rsatadi.

Obrazli toponimlarning yana bir muhim jihati – ularning psixologik ta’sir kuchidir. Inson muayyan joy nomini eshitganida ongida muayyan obraz hosil bo‘ladi. Bu obraz esa uning qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir qilishi mumkin. Masalan, ijobiy bahoga ega nomlar insonni jalb qilsa, salbiy baholi nomlar undan uzoqlashtiradi. Bu esa toponimlarning pragmatik va psixolingvistik funksiyalarini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va ingliz tillaridagi obrazli toponimlarning leksik-semantik tasnifi ularning murakkab va ko‘p qatlamli semantik tuzilmasini ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu tasnif orqali inson tafakkuri, madaniyati va tarixiy tajribasining lingvistik ifodasi yanada chuqurroq anglanadi. Obrazli toponimlar til tizimining eng boy qatlamlaridan biri bo‘lib, ularni kompleks yondashuv asosida o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

**References:**

1. Arutyunova, N. D. (1988). *Tipy yazykovykh znacheniy*. Nauka.
2. Jo‘rayev, B. (2010). *Toponimika asoslari*. Toshkent.
3. Kubryakova, E. S. (2004). *Yazyk i znanie*. Nauka.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
5. Lotman, Y. M. (1992). *Semiosfera*. Iskusstvo-SPB.
6. Nikonov, V. A. (1965). *Vvedenie v toponimiku*. Nauka.
7. Rahmatullayev, Sh. (2006). *O‘zbek tilining izohli lug‘ati asoslari*. Toshkent.
8. Reformatskiy, A. A. (1967). *Vvedenie v yazykoznanie*. Moskva.
9. Smith, A. H. (1956). *English place-name elements*. Cambridge University Press.
10. Superanskaya, A. V. (1973). *Obshchaya teoriya imeni sobstvennogo*. Nauka.

The Lingua Spectrum
Cogito, ergo sum

Jurnal Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan 2025-yil 4-yanvar kuni 366/5-sonli qaror bilan tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

# Linguopsychological Foundations of the Expression of Mental States in English and Uzbek

**Tashpulatova Shirina Ziyoviddin qizi**
*shirinatoshpolatova@icloud.com*
*PhD, Senior Lecturer,*
*National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek*

**Annotation** *This article examines the linguistic and psychological foundations of expressing mental states in English and Uzbek. Particular attention is paid to the interaction between speech production, cognitive and psychological processes, individual experience, subjective perception, and communicative intention. Speech production is viewed as a dynamic process involving the perception and interpretation of external or internal stimuli, the formation of meaning, the selection of linguistic units, and their realization within a specific communicative context. Literary discourse is considered an important source for analyzing the development, awareness, and verbal representation of psychological experiences because it allows inner states to be represented through dialogue, narration, metaphor, physical reactions, and character behavior. Based on examples from Uzbek and English literary texts, the study identifies several linguo-psychological mechanisms of mental-state representation, including direct naming, physiological reaction, behavioral expression, memory activation, spatial association, verbal address, inner speech, repetition, metaphorical and symbolic expression, internal resistance, and silence. The analysis demonstrates that the representation of mental states is shaped by the interaction of language, cognition, individual experience, subjective attitudes, and communicative context. The findings highlight the importance of a contextual approach to the interpretation of psychological meanings in literary discourse.*

**Keywords** *Linguopsychology, mental state, psychological experience, literary discourse, cognitive process, individual experience, communicative intention, physiological reaction, memory, inner speech, metaphor, symbolic expression*

# Ingliz va o‘zbek tillarida ruhiy holatni ifodalanishining lingvopsixologik asoslari

**Tashpulatova Shirina Ziyoviddin qizi**
*shirinatoshpolatova@icloud.com*
*PhD, Katta o‘qituvchi,*
*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti*

**Annotatsiya** *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida ruhiy holat hamda ruhiy kechinmalarning ifodalanishi lingvopsixologik nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Ruhiy holatlarning nutqda aks etishi insonning kognitiv jarayonlari, individual tajribasi, kommunikativ niyati, vaziyat va subyektiv talqini bilan bog‘liq holda yoritiladi. Tadqiqotda nutqning shakllanish jarayoni, fikr va so‘z munosabati, ruhiy kechinmalarning til vositalari orqali ifodalanishi hamda badiiy diskursning mazkur jarayonni o‘rganishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Badiiy matnlardagi dialog, muallif nutqi, ichki nutq, metafora va ramziy ifodalar orqali qahramonlarning ruhiy holatini namoyon etish usullariga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, ruhiy holatni*

*ifodalashning bevosita nomlash, fiziologik reaksiya, xatti-harakat, xotira, fazoviy assotsiatsiya, takror, ichki qarshilik va sukut kabi lingvopsixologik mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Qiyosiy tahlil ingliz va o'zbek tillarida emotsional kechinmalarning verbal ifodasi milliy-madaniy xususiyatlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Bu esa lingvopsixologik tahlilda til va madaniyat munosabatini chuqurroq yoritish imkonini beradi. Shu bilan birga, ingliz va o'zbek tillaridagi materiallar asosida ruhiy holatlarning ifodalanishida umumiy va o'ziga xos jihatlar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari ruhiy kechinmalarning verbal ifodasi til, tafakkur, kognitiv jarayon va kommunikativ vaziyatning o'zaro aloqasi asosida shakllanishini ko'rsatadi.*

**Kalit so'zlar** *Lingvopsixologiya, ruhiy holat, ruhiy kechinma, badiiy diskurs, kognitiv jarayon, individual tajriba, kommunikativ niyat, fiziologik reaksiya, xotira, ichki nutq, metafora, ramziy ifoda*

# Лингвопсихологические основы выражения психического состояния в английском и узбекском языках

**Ташпулатова Ширина Зиёвиддин кизи**
*shirinatoshpolatova@icloud.com*
*PhD, Старший преподаватель,*
*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека*

**Аннотация** *В статье исследуются особенности выражения психического состояния в английском и узбекском языках в лингвопсихологическом аспекте. Основное внимание уделяется взаимосвязи речевой деятельности с психическими и когнитивными процессами, индивидуальным опытом, субъективным восприятием и коммуникативным намерением говорящего. Формирование речевого высказывания рассматривается как последовательный процесс восприятия внешнего или внутреннего воздействия, его осмысления, формирования содержания, выбора языковых единиц и их реализации в конкретной коммуникативной ситуации. Художественный дискурс рассматривается как значимый материал для комплексного анализа способов возникновения, осознания и языкового выражения психических переживаний. На материале художественных произведений выявляются основные лингвопсихологические механизмы репрезентации психического состояния: непосредственное называние переживания, физиологическая реакция, поведенческое проявление, актуализация памяти, пространственная ассоциация, речевое обращение, внутренняя речь, повтор, метафорическое и символическое выражение, внутреннее сопротивление и молчание. Особое внимание в исследовании уделяется коммуникативным функциям лексических, семантических и стилистических средств выражения психических состояний. Сопоставительный анализ показывает, что вербализация эмоциональных переживаний в английском и узбекском языках тесно связана с национально-культурными особенностями. Это позволяет глубже раскрыть взаимосвязь языка и культуры в рамках лингвопсихологического анализа.*

**Ключевые слова** *Лингвопсихология, психическое состояние, психическое переживание, художественный дискурс, когнитивный процесс, индивидуальный опыт, коммуникативное намерение, физиологическая реакция, память, внутренняя речь, метафора, символическое выражение*

Lison – ijtimoiy sharoitda shakllangan va umumiy kommunikativ imkoniyatlarni taqdim etadigan hodisa, nutq ana shu imkoniyatlarning muayyan shaxs tomonidan aniq bir vaziyatda tanlanishi va qo‘llanishi natijasidir. Shu bois nutqni lingvopsixologik jihatdan tahlil qilishda faqat uning nima sababdan aynan shu shaklda tuzilganiga, mazmunning ongda qanday shakllanganiga, so‘zlovchi lisoniy tanlovni qay tarzda amalga oshirganiga e‘tibor qaratilishi lozim. A. Leontyev nutqni inson faoliyatining o‘ziga xos turi sifatida ko‘rib, uning motiv, maqsad va faoliyatning boshqa tarkibiy qismlari bilan bog‘liqligini ta‘kidlaydi. (Леонтьев, 2003).

L.S. Vygotskiy fikr va so‘zning o‘zaro munosabatini fikrdan so‘zga va so‘zdan fikrga tomon kechadigan dinamik jarayon sifatida talqin qiladi. (Vygotsky, 1986). Shaxs avvalo tashqi yoki ichki ta‘sirni sezadi, idrok etadi, ajratadi, anglaydi, xotirasidagi mavjud bilim va tajriba bilan bog‘laydi, shundan keyingina uni mazmun sifatida shakllantiradi. Bu mazmun kommunikativ ehtiyoj asosida nutqda voqelanadi. Shu ma‘noda nutqning yuzaga kelishida *ta‘sirlanish, idrok etish, anglash, mazmunni shakllantirish, lisoniy birliklarni tanlash, nutqiy strukturasini shakllantirish, ifodalash* jarayonlari ketma-ketligi mavjudligini ta‘kidlash lozim.

Inson ruhiyatida yuzaga keluvchi muayyan holatlar, kechinmalar uning ongidagi jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq. Zotan, kishi biror ta‘sir, voqea-hodisani ongida idrok etadi, anglaydi va subyektiv tajribasi asosida mohiyatni tushunadi. Shu jarayon natijasida yuzaga keluvchi ruhiy holat nutqda o‘z ifodasini topadi. O‘z navbatida, holatning ifodalanishi va tasvirlanishiga ijtimoiy axloq meyorlari, gender stereotiplari, e‘tiqodiy va subyektiv qarashlar kabi omillar ta‘sir o‘tkazadi. Mana shu murakkab jarayonlar tahlili uchun insonning ichki dunyosi, kechinmalari va subyektiv tajribasini batafsil yoritadigan badiiy asarlar diskursi munosib material bo‘la oladi. Zero, aynan badiiy asarda holat nomini qayd etib o‘tish bilan cheklanmasdan ruhiy kechinma mazmunini dialoglar, muallif tasviri, metaforalar bilan obrazli talqin qilish imkoniyati bor. Badiiy diskurs ruhiy holatning qanday yuzaga kelishi, anglashilishi, tasvirlanishi va ifodalanishini bir butun kontekstda tahlil qilish imkonini beradi. Bu jihat M. Hallidayning tilning funksional tabiatiga oid qarashlari bilan hamohangdir. Olim tilning shakli uning inson hayotida bajaradigan vazifalari bilan bog‘liqligini ta‘kidlab, “Language is as it is because of the functions it has evolved to serve in people‘s lives” ya‘ni til inson hayotida muayyan vazifalarni bajarish uchun rivojlanib shu shaklga kelgan” (Halliday, 1978) deya qayd etadi. Bu nuqtayi nazardan badiiy matndagi ruhiy holat ifodasini muayyan vaziyat, munosabat va kommunikativ vazifa doirasidagi nutqiy voqelik sifatida o‘rganish lozim.

Nutq hosil bo‘lishining psixologik mexanizmlarini izohlashda W. Levelt qarashlari nazariy dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi. Olim nutqni kommunikativ niyatning yuzaga kelishidan boshlanadigan va artikulyatsiya bilan yakunlanadigan murakkab jarayon deb tavsiflaydi. (Levelt, 1989). Ushbu jarayonda avval so‘zlovchining kommunikativ maqsadi va xabar mazmuni shakllanadi, keyin mazmun lingvistik birliklarni tizimlashtirish bilan voqelanadi.

Boshqa tomondan, nutqning shakllanishiga faqat individual psixologik

omillar ta'sir qilmaydi. So'zlovchi muayyan til jamoasining a'zosi sifatida mavjud kommunikativ me'yorlar, ijtimoiy rollar, madaniy tajriba va axloqiy me'yor talablariga amal qiladi. Bir xil mazmunning rasmiy yig'ilishda, do'stona suhbatda yoki ichki monologda turlicha voqelanishi bunga yaqqol misoldir. Demak, nutqning psixologik xususiyatlari ijtimoiy-kommunikativ sharoitdan ajratilgan holda izohlanishi mumkin emas. Til birliklarining tanlanishi ham shu jarayonning muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Lug'aviy semasiga ko'ra bir-biriga ma'nodosh birliklar har doim ham ayni bir xil kommunikativ qiymatiga ega emas. So'zlovchi sinonimik qatordan ma'lum bir birlikni tanlar ekan, uning denotativ mazmunidan tashqari uslubiy, ekspressiv, yoki assotsiativ imkoniyatlarini ham hisobga oladi va shu asnoda nutqdagi leksik tanlov shaxsning voqelikka munosabati va kommunikativ strategiyasini ochib beruvchi omilga aylanadi. Xuddi shunday tanlov cheklanishi grammatik vositalarda ham kuzatiladi. Shaxs olmoshlarining tanlanishi kommunikativ masofani, modal birliklar so'zlovchining ishonch darajasini, yuklamalar esa munosabat va kommunikativ urg'uni ifodalashi mumkin. Shu bois nutqning psixologik jihatini belgilashda leksik birliklarning lug'aviy ma'nosidan ko'ra, ularning kontekstual vazifasi muhimroq bo'ladi. Kontekst nutq mazmunini talqin qilishning asosiy omillardan biridir. Masalan, "yaxshi", "albatta", "balki", "menimcha" kabi birliklarning psixologik-kommunikativ qiymatini faqat lug'aviy ma'nosi asosida aniqlash yetarli emas. Ularning haqiqiy funksiyasi gapning umumiy mazmuni, ohang, adresat bilan munosabat, oldingi nutq va kommunikativ vaziyat orqali belgilanadi. Lingvopsixologik tahlil dastlab nutqning leksik, grammatik va sintaktik belgilarning kommunikativ vazifasini belgilashni taqazo qiladi. Bunda kontekstual dalillarga tayanish lozim. Masalan, gapda bir so'z takrorlanishi asosida so'zlovchining muayyan psixologik holati haqida qat'iy hukm chiqarib bo'lmaydi. Bizningcha, nutqning lingvopsixologik ko'lami verbal shakl – kognitiv jarayon – kommunikativ niyat – kontekst – interpretatsiya zanjiri asosida tasavvur qilinishi mumkin. Mana shu talqinda nutqiy akt shaxsning kognitiv va kommunikativ faoliyati natijasi deb anglashiladi. Tahlilning asosiy vazifasi lingvistik fakt bilan psixologik talqin orasidagi chegarani saqlagan holda, ikkalasining o'zaro aloqasini tizimli yoritishdan iborat.

Ruhiy holat mazmunining badiiy matndagi ko'rinishini lingvopsixologik aspektda quyidagi kontekst misolida yotitish mumkin. Nilufar Turg'unovaning "Arg'imchoq" hikoyasida ruhiy kechinmalar qahramonning xotirasi, idroki, xatti-harakati va nutqidagi o'zgarishlar orqali ochib beriladi. Shu jihatdan parcha ruhiy holatning ichki kechinmadan tashqi ifodagacha bo'lgan jarayonini yaxlit holda kuzatish imkonini beradi. Jumladan, ushbu gap ruhiy kechinmaning bir necha bosqichda shakllanib, turli til vositalari orqali ifodalanishini ko'rsatadi: *"Derazadan mo'ltirab turgan ko'zlar yomg'ir ostida qolgan eski arg'imchoqqa uzoq-uzoq termulardi."* Bu gapda qahramonning *"mo'ltirab turgan ko'zlari"* va arg'imchoqqa *"uzoq-uzoq termulishi"* uning ichki kechinmasini tashqi xatti-harakat orqali anglashga undaydi. Bu o'rinda ruhiy holatning nutqiy ifodasi tashqi belgilar ta'siri asosida amalga oshirilgan. Yana bir misolda ruhiy holat xotiralash orqali ifodalanadi *"bu bahorgi yomg'irlar Behruzga yoshik xotiralarini eslatardi"* Yomg'ir – tabiat hodisasi, ammo bu o'rinda tabiat hodisasi qahramonning individual tajribasi bilan bog'langan psixologik qo'zg'atuvchiga aylanadi. Bu jarayon *"O'sha kundagi voqeaga ikki yil bo'lgan bo'lsa-da, kechagidek ko'z o'ngida, yodiga muhrlangan..."* gapi bilan mustahkamlanadi. Vaqt o'tganiga qaramay voqeaning *"kechagidek"* xotirada saqlanib qolishi ruhiy ta'sirning davomiyligini ko'rsatadi. *"Sabrina o'rnidan sapchib turib, oynadan arg'imchoqqa qarab afsuslandi"* gapida *"afsuslandi"* fe'li kechinmani to'g'ridan-to'g'ri ifodalamoqda. Biroq matnda ruhiy holat mazmuni fiziologik belgilar orqali ham beriladi.

Masalan, *"Onaning yuragi qo'rqqanidan gursillab urardi"* gapida qo'rquv yurak urishining kuchayishi orqali tasvirlangan. Shuningdek, *"Oyoq-qo'li qonga bo'yalgan farzandini ko'rib, yuragi urishdan to'xtagandek bo'ldi"* gapida kuchli ruhiy zarba fiziologik holatga qiyoslangan. Bu kabi ifodalar ichki kechinmaning inson organizmidagi holatlar orqali tasvirlanishiga dalil bo'ladi. *"Jigarbandidan nima bo'lganini yonidagi ayoldan so'ray olmas, faqatgina uning orqasidan yugurib ketardi"* gapida ona vaziyatni anglashga intilayotgan bo'lsa-da, kuchli qo'rquv sababli savol bera olmaydi. Demak, chuqur ruhiy kechinma balki nutqning yo'qligi bilan ham tasvirlanishi mumkin. *"Behruz Sabinraning hayotdan ko'z yumganini tan olgisi kelmas edi..."* gapida qahramon voqelikni bilsa-da, uni ruhiy jihatdan qabul qilishga tayyor emas. Bu misolda ruhiy kechinma kishining ong faoliyatiga ta'sir qiluvchi jarayon deb talqin qilinadi. Hikoya *"Bu voqeaga ikki yil bo'lgan bo'lsa ham, o'sha arg'imchoq haligacha eski qayrag'ochga osig'liq..."* degan jumla bilan yakunlanadi. Bu o'rinda arg'imchoq qahramonning singlisi bilan bog'liq xotiralarini saqlab turuvchi ramziy obrazga aylangan.

Inson kechinmasining nutqiy ifodasi psixik ta'sir natijasida yuzaga keladigan murakkab jarayondir. Bunda ruhiy kechinma qanday psixologik jarayon orqali lisoniy shaklga kelganini aniqlash hodisa mohiyatini anglashga asos bo'ladi. Ruhiy kechinmaning o'zbek tilida ifodalanish xususiyatlari Olim Jumaboyevning "Bog'bon", Raimqul Suyarovning "Tobutsoz", Salim Abdurahmonning "Qadr", Sobir Sayhonning "Yurt sog'inchi", Husan Karvonlining "Qishloq", Erkin A'zamning "Bir daqiqa ko'zingni yum" va Xurshid Do'stmuhammadning "Duryog'di" hikoyalari tahlilidan anglashildi. Quyidagi jadvalda ruhiy holat ifodasida qo'llaniladigan lingvopsixologik mexanizmlarni sanab o'tamiz:

| IFODA TURI | LINGVOPSIXOLOGIK MEXANIZM | MISOL |
|---|---|---|
| Bevosita nomlash | Kechinmaning tayyor lisoniy birlik orqali ifodalanishi | *"Uning ko'nglida vahima paydo bo'ldi."* O. Jumaboyev "Bog'bon" |
| Fiziologik reaksiya | Ichki holatning organizmdagi tashqi reaksiyaga aylanishi | *"Uning yuragi gursillab urar, qo'llari esa beixtiyor titrardi."* R. Suyarov "Tobutsoz" |
| Xatti-harakat orqali ifodalash | Kechinmaning ongdan harakatga ko'chishi | *"U bir zum jim qoldi-da, boshini egib, sekin tashqariga chiqib ketdi."* O. Jumaboyev "Bog'bon" |
| Xotira orqali ifodalash | Avvalgi tajribaning qayta faollashib, hozirgi ruhiy holatni shakllantirishi | *"U uzoq yillardan beri ko'rmagan yurtini esladi, ko'z oldiga bolalik kunlari keldi."* S. Sayhon "Yurt sog'inchi" |
| Makon assotsiatsiyasi | Makonning individual tajriba bilan psixologik mazmun kasb etishi | *"Qishloq ko'chalari unga bolalik yillarini, otasining mehrli chehrasini eslatardi."* H. Karvonli "Qishloq" |
| Nutqiy murojaat | Ichki kechinmaning kommunikativ ehtiyoj asosida nutqqa aylanishi | *"Ota, meni kechiring, dedi u boshini egib."* S. Abdurahmon "Qadr" |
| Ichki nutq | Ongdagi kechinmaning qahramon ichki nutqida namoyon bo'lishi | *"Nega bunday bo'ldi? Nahotki, men bunga yo'l qo'ygan bo'lsam?"*Erkin A'zam "Bir daqiqa ko'zingni yum" |

| | | |
|---|---|---|
| Nutqiy takror | Kuchli kechinmaning ongda qayta jonlanishi va nutqda takrorlanishi | *"Yo'q, yo'q, unday bo'lishi mumkin emas. Yo'q!"* Erkin A'zam "Bir daqiqa ko'zingni yum" |
| Metaforik ifoda | Ichki tajribaning obrazli va ko'chma mazmunga aylanishi | *"Ko'nglining osmonini qora bulutlar qoplagandek edi."* *X*. Do'stmuhammad "Duryog'di" |
| Ramziy ifoda | Predmet yoki obrazning individual kechinmani qo'zg'atuvchi belgiga aylanishi | *"U stol ustidagi eski suratga uzoq tikilib qoldi."* *X*. Do'stmuhammad "Duryog'di" |
| Ichki qarshilik | Voqelikning psixologik jihatdan qabul qilinmasligi | "*Yo'q, bu rost emas. Men bunga ishonmayman, deb o'zini o'zi ovutardi."* R. Suyarov "Tobutsoz" |
| Sukut | Kuchli kechinma ta'sirida nutqiy faoliyatning cheklanishi | *"U hech narsa demadi. Uzoq jim qoldi, ko'zlarini yerga qadadi."* S. Abdurahmon "Qadr" |

**1-jadval.** *O'zbek tilida ruhiy holat mazmunini ifodalashning lingvopsixologik mexanizmlari*

Zamonaviy o'zbek nasridan shakllantirilgan misollar bazasi tahlilidan holat ifodasining lingvopsixologik xususiyatlari psixik jarayon, aqliy faoliyat, individual tajriba, subyektiv munosabat, vaziyat, nutqiy faoliyat kabi ma'nolar kesimida shakllanishi anglashildi. Sanab o'tilgan omillar o'zaro bog'liq holda ruhiy holatning ongda shakllanishi, anglashilishi va nutqda ifodalanish jarayonini yuzaga keltiradi. Yuqorida tahlil qilingan ruhiy kechinmalar oxir-oqibat muayyan til vositalari orqali namoyon bo'ladi. Ingliz va o'zbek tillari insonning ichki kechinmalarini ifodalash uchun umumiy imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, ularning konkret vositalari va obrazlari bir xil emas. Fikrimizni dalillash uchun J. Morissonning "Clifftop discovery" nomli hikoyasiga to'xtalamiz.

Hikoyadagi Juliya obrazining Kornuellga qaytishi o'n yil avvalgi yo'qotish bilan bog'liq xotiraning jonlanishiga sabab bo'ladi. Buni *"Finding herself back in Cornwall was a surprise to Julie"* hamda "*She'd vowed never to return after that first disastrous holiday here"* gaplaridan anglash mumkin. Bu o'rinda *surprise* ruhiy kechinmani bevosita nomlaydi, that first disastrous holiday birikmasi subyektiv tajriba, yoqimsiz taasurotlarga ishora qiladi. Bu makon qahramonda yo'qolgan unashtiruv uzugi bilan bog'liq salbiy xotirani uyg'otadi. Muallif buni *"Julie couldn't fathom why Adam wanted to go back"* deya alohida ta'kidlaydi. Bu o'rinda ayni bir makonning ikki shaxs tomonidan turlicha idrok qilinishi subyektiv munosabatning ruhiy holat shakllanishidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Juliya uchun Kornuel bilan bog'liq xotira vaqt o'tishi bilan ham o'z kuchini yo'qotmaydi: *"She'd thought about her engagement ring many times over the years." "She wondered if it wallowed deep in some drain at the cottage they'd rented, or if it had fallen off in a supermarket, or on the street"* gapi xotiraning tasavvur jarayoni bilan birlashganini, nadomadga aylanganini ko'rsatadi. Qahramon uzukning qayerdaligini bilmaydi, shuning uchun yo'qotgan qimmatli buyumini turli joylarda tasavvur qiladi. Ayniqsa, *"Imagining it on someone else's finger made her wince"* gapida psixik jarayonning fiziologik reaksiyaga o'tishini ko'ramiz, made her wince ushbu tasavvurning bevosita tana reaksiyasini keltirib chiqarganini ifodalaydi. Kornuel

haqidagi har qanday ko'rsatuv Juliya ruhiyatida avvalgi kechinmani jonlantiradi: *"she'd switch channels as quickly as possible, heart thumping just like it had when she'd noticed her ring had gone."* Bu yerda heart thumping ichki kechinmaning fiziologik ifodasi bo'lib, o'tmishdagi hodisa haqidagi xotira hozirgi vaziyatda yurak urishining kuchayishi obrazi bilan tasvirlanadi. Hikoyada Juliya ruhiyatidagi xavotirning nutqiy ifodasi *"A worry niggled at the back of Julie's mind"* jumlasi bo'lib niggled at the back of her mind birikmasi ushbu xavotirning ongda doimiy ravishda mavjud ekanini, qahramonni ichdan bezovta qilayotganini anglatadi. *"That first view of the Minack Theatre perched on a rocky outcrop at the edge of the sea made Julie gasp with delight"* jumlasida *delight* ijobiy kechinmani nomlaydi, *gasp* uning fiziologik namoyon bo'lishini bildiradi. Tahlildan anglashiladiki, ingliz badiiy diskursida ruhiy holatni tasvirlashda insonning ongida kechuvchi psixik jarayonlar, individual tajribasi va vaziyatni subyektiv talqin qilish, fiziologik reaksiya, xatti-harakat va turli lisoniy vositalardan foydalaniladi.

**References:**

1. Halliday, M. (1987). *Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning*. University Park Press.
2. Levelt, W. (1989). *Speaking: From Intention to Articulation*. The MIT Press.
3. Vygotsky, L. (1986). *Thought and Language* (trans. A. Kozulin.) MIT Press.
4. Леонтьев, А. А. (2003). *Основы психолингвистики: учебник 3-е изд., перераб. и доп.* Смысл; Лань.

**The Lingua Spectrum**
*Volume 10, October 2026*

# The poetics of the mother image in 19th-century English novels: the interpretation of biological and surrogative motherhood

**Rakhimova Umida Saliyevna**[1]
*umida1976@list.ru*
*Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD), Professor,*
*Mamun University*

**Annotation** *The article provides a comparative analysis of the artistic interpretation of the concept of motherhood in 19th-century Victorian literature and the poetic functions of biological and surrogate motherhood. The research is based on Thomas Hardy's Desperate Remedies (1871) and George Moore's A Mummer's Wife (1885), which highlight the role of the mother image in the formation of female identity, gender roles, and social responsibility. The article uses Sarah Stickney Ellis's The Mothers of England as a theoretical source and analyzes the model of the "perfect mother" that emerged in the Victorian era. The results of the study show that in Victorian novels, motherhood is interpreted as a socially and culturally formed institution rather than a biological phenomenon. While in Desperate Remedies, Miss Oldcliffe, as a surrogate mother, leads to the spiritual and social development of the main character, Cytheria, in A Mummer's Wife, Kate's inability to fulfill her maternal duties leads to her personal tragedy and social decline. The article also analyzes class differences, family relationships, the imbalance between father and mother images, and the moral demands and pressures imposed on women by Victorian society. The research scientifically substantiates that the image of the mother in 19th-century Victorian literature is not only a symbol of family values, but also an important artistic and cultural phenomenon reflecting the moral and normative views of society.*

**Keywords** *Motherhood, surrogate mother, Victorian literature, mother image, gender roles, Thomas Hardy, George Moore, female image, family, social pressure*

# XIX asr ingliz romanlarida ona obrazi poetikasi: biologik va surrogat onalik talqini

**Raximova Umida Soliyevna**
*umida1976@list.ru*
*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, v.b., Professor,*
*Ma'mun universiteti*

**Annotatsiya** *Maqolada XIX asr Viktoriya adabiyotida onalik konsepsiyasining badiiy talqini hamda biologik va surrogat onalik obrazlarining poetik funksiyalari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot Tomas Xardining Desperate Remedies (1871) va Jorj Murning A Mummer's Wife (1885) romanlari asosida olib borilib, ularda ona obrazining ayol shaxsiyati, gender rollari va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Maqolada Sara Stikni Ellisning The Mothers of England asari nazariy manba sifatida qo'llanilib, Viktoriya davrida shakllangan "mukammal ona" modeli tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Viktoriya romanlarida onalik biologik hodisadan ko'ra ijtimoiy va madaniy jihatdan shakllangan institut sifatida talqin*

[1] Rakhimova U.S. — ORCID: 0000-0003-3060-3833

*etiladi. Desperate Remedies romanida miss Oldkliff surrogat ona sifatida bosh qahramon Siteriyaning ma'naviy va ijtimoiy kamolotiga yo'l ko'rsatsa, A Mummer's Wife romanida Keytning onalik vazifalarini bajara olmasligi uning shaxsiy fojiasi va ijtimoiy tanazzuliga olib keladi. Shuningdek, maqolada sinfiy tafovut, oilaviy munosabatlar, ota va ona obrazlari o'rtasidagi nomutanosiblik hamda Viktoriya jamiyatining ayollarga yuklagan axloqiy talab va bosimlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida ona obrazi XIX asr Viktoriya adabiyotida nafaqat oilaviy qadriyatlarni ifodalovchi timsol, balki jamiyatning axloqiy-me'yoriy qarashlarini aks ettiruvchi muhim badiiy va madaniy fenomen ekanligi ilmiy asoslanadi.*

**Kalit so'zlar** *Onalik, surrogat ona, Viktoriya adabiyoti, ona obrazi, gender rollari, Tomas Xardi, Jorj Mur, ayol obrazi, oila, ijtimoiy bosim*

## Поэтика образа матери в английских романах XIX века: интерпретация биологического и суррогатного материнства

**Рахимова Умида Салиевна**
*umida1976@list.ru*
*Доктор философии по филологическим наукам (PhD), и.о. профессора, Университет Мамуна*

**Аннотация** *В статье представлен сравнительный анализ художественной интерпретатsiи концепции материнства в викторианской литературе XIX века и поэтических функций биологического и суррогатного материнства. Исследование основано на романах Томаса Харди «Desperate Remedies» (1871) и Джорджа Мура «A Mummer's Wife» (1885), которые подчеркивают роль образа матери в формировании женской идентичности, гендерных ролей и социальной ответственности. В качестве теоретического источника в статье используется роман Сары Стикни Эллис «Матери Англии», а также анализируется модель «идеальной матери», возникшая в викторианскую эпоху. Результаты исследования показывают, что в викторианских романах материнство интерпретируется скорее как социально и культурно сформированный институт, чем как биологический феномен. В то время как в «Отчаянных средствах» мисс Олдклифф, как суррогатная мать, способствует духовному и социальному развитию главной героини, Ситерии, в «Жене ряженого» неспособность Кейт выполнять свои материнские обязанности приводит к её личной трагедии и социальному упадку. В статье также анализируются классовые различия, семейные отношения, дисбаланс между образами отца и матери, а также моральные требования и давление, оказываемое на женщин викторианским обществом. Исследование научно обосновывает, что образ матери в викторианской литературе XIX века является не только символом семейных ценностей, но и важным художественным и культурным феноменом, отражающим моральные и нормативные взгляды общества.*

**Ключевые слова** *Материнство, суррогатная мать, викторианская литература, образ матери, гендерные роли, Томас Харди, Джордж Мур, женский образ, семья, социальное давление*

**Kirish**

So‘nggi yillarda jahon adabiyotshunosligida ona obrazini gender, madaniyatshunoslik va feministik tanqid nuqtai nazaridan o‘rganishga qiziqish tobora ortib bormoqda. XIX asr Viktoriya adabiyotida onalik konsepsiyasi ayolning ijtimoiy mavqei, oilaviy vazifalari va axloqiy mas’uliyati bilan chambarchas bog‘liq holda tasvirlangan. Ushbu davr romanlarida ona obrazi nafaqat farzand tarbiyalovchi shaxs, balki jamiyatning axloqiy qadriyatlarini saqlovchi va avlodlarga yetkazuvchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, Viktoriya davri adabiyotida biologik onalik bilan bir qatorda surrogat onalik, ya’ni ona vazifasini boshqa ayollar tomonidan bajarilishi ham muhim badiiy hodisa sifatida aks etgan. Bu holat ayollarning jamiyat tomonidan belgilangan gender rollari, onalikka oid ijtimoiy talablar va ularni bajarish jarayonidagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik masalalarini ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada Tomas Xardining *Desperate Remedies* (1871) va Jorj Murning *A Mummer’s Wife* (1885) romanlari qiyosiy tahlil qilinib, ularda biologik va surrogat onalik obrazlarining badiiy vazifasi hamda Viktoriya jamiyatida ayol zimmasiga yuklangan onalik mas’uliyati yoritiladi. Asarlar tahlili asosida ona obrazining ayol shaxsiyati, ijtimoiy maqomi va gender rollarini shakllantirishdagi ahamiyati ochib beriladi hamda Viktoriya adabiyotida onalikning nafaqat tabiiy holat, balki ijtimoiy jihatdan qurilgan madaniy institut ekanligi ilmiy asoslanadi.

**Asosiy qism**

XIX asrda Viktoriya onasi idealini shakllantirishda Sara Stikni Ellisning tarbiyaviy-axloqiy qo‘llanmalari, ayniqsa *The Mothers of England* asari muhim nazariy manba sifatida xizmat qilgan (Ellis, 1843). Ushbu asarda onalik ayolning eng muhim ijtimoiy va axloqiy vazifasi sifatida talqin qilinib, jamiyat tomonidan qabul qilingan “mukammal ona”modeli asoslab berilgan. Shu nuqtai nazardan, Viktoriya adabiyotida ona obrazini tahlil qilishda nafaqat biologik onalik, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan shakllangan onalik konsepsiyasini ham hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tomas Xardining *Desperate Remedies* va Jorj Murning *A Mummer’s Wife* romanlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, asarlardagi markaziy ayol qahramonlar onalikning turli modellarini ifodalaydi. Xususan, miss Oldkliff biologik ona bo‘lmasa-da, Siteriyaga nisbatan g‘amxo‘rlik, himoya va tarbiyaviy munosabat orqali surrogat ona vazifasini bajaradi. Keyt esa biologik ona bo‘lishiga qaramay, jamiyat kutgan onalik vazifalarini to‘liq ado eta olmaydi va natijada “muvaffaqiyatsiz ona” timsoli sifatida gavdalanadi. Bu holat onalikni tabiiy biologik holat emas, balki muayyan ijtimoiy va madaniy talablar asosida bajarilishi lozim bo‘lgan rol sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Shundan kelib chiqib, ta’kidlash mumkinki, Viktoriya jamiyatida shakllangan onalik ideali ayollarga farzandli bo‘lishidan qat’i nazar, onaga xos axloqiy va tarbiyaviy vazifalarni bajarish majburiyatini yuklagan. Shu bois XIX asr romanlarida ona obrazi nafaqat oilaviy munosabatlarni ifodalovchi badiiy vosita, balki bosh qahramonning ma’naviy shakllanishiga ta’sir etuvchi hamda ideal onalik talablarini bajarmaslikning ijtimoiy oqibatlarini namoyon qiluvchi muhim poetik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Garchi ayrim hollarda onalik munosabatlari biologik ona siymosi orqali amalga oshirilmasa ham, ularning qahramon hayoti va roman kompozitsiyasidagi ahamiyati kamaymaydi. Ko‘pincha surrogat ona vazifasini bajaruvchi ayollar qahramonga an’anaviy onadan kutiladigan g‘amxo‘rlik va tarbiya bilan birga, hayotiy tajriba va muhim yo‘l-yo‘riq ham beradilar. Tomas Xardining *Desperate Remedies* romani bosh qahramoni Siteriya bolaligidan erta onasiz qoladi. Otasi vafot etgach, u iqtisodiy va ma’naviy barqarorlikka erishish maqsadida ish izlashga majbur bo‘ladi. Aynan

shu sharoitda u xizmatchi va hamroh qidirayotgan keksa uy bekasi miss Oldkliff bilan tanishadi. Vaqt o'tishi bilan ular o'rtasida ona va qiz munosabatlarini eslatuvchi yaqinlik shakllanadi. Bu munosabatning mohiyati miss Oldkliffning quyidagi fikrlarida yaqqol namoyon bo'ladi: *It is almost worth while to be bored with instructing her in order to have a creature who could glide round my luxurious indolent body in that manner, and look at me in that way – I warrant how light her fingers are upon one's head and neck... What a silly modest young thing she is, to go away so suddenly as that!* (Hardy, 2009)

Ushbu parchadan miss Oldliff Siteriya uning yonida bo'lishini – yetishmagan ona emas, balki uning haqiqiy onasi bo'lishni xohlayotganini tushunishimiz mumkin. Yosh ayolning ilon sifatida tasvirlanishi uning miss Oldliff ustidan o'zgartiruvchi kuchga ega ekanligini ko'rsatadi, chunki uning fe'l-atvori keksa ayoldan onalik qiyofasiga aylanadi. Uning xarakteridagi onalik o'zgarishi uning fikrlarida namoyon bo'lganini ko'rish mumkin: "*What a silly modest young thing she is, to go away so suddenly as that!*" (Hardy, 2009) (Shunday ketib qolgan ahmoq va kamtarin yosh qiz!), bu uning Siteriya yosh ayol sifatida o'zini qanday tutishi haqida qayg'urayotganini ko'rsatadi. Bu shuni anglatadiki, Siteriya xuddi bola o'zini to'g'ri tutishni o'rganishi kerakdek, miss Oldliffga o'zini o'zgarishi kerak bo'lgan tarzda ko'rsatadi.

Biroq, onalik maqomiga erishish nafaqat Oldkliff xonim kabi farzandsiz ayollar uchun, balki endigina oila qurayotgan yosh ayollar uchun ham cheklangan istakdir. Jorj Murning *A Mummer's Wife* romanidagi Keyt garchi qanday ona bo'lishni bilmasa ham, doimiy ravishda rafiqa va onaning ijtimoiy roli va umidlarini bajarishga harakat qiladi. Keyt nafaqat Ralf Yede va Dik Lennoks bilan bo'lgan ikki nikohda, balki ikki yosh xodimlar bilan o'zaro munosabatlarida va hatto o'z farzandining tug'ilishida ham rafiqa va ona rolini o'ynashga harakat qiladi. Ushbu o'zaro ta'sirlardan bir xil xulosaga kelish mumkinki, Keyt ona rolini o'ynashga harakat qilsa ham, aslida qanday qilib muvaffaqiyatli ona bo'lishni o'rganishni xohlamaydi. U *Mothers of England* (Angliya onalari) kabi zamonaviy qo'llanmalarni o'qish o'rniga, mukammal ona timsoli bo'lmagan janrlardagi romanlarni o'qiydi. Aynan mana shu bilim yetishmasligi tufayli Keyt haqiqiy onaga aylanganidan keyin sutni isitish kerakligi yoki uni to'g'ri parvarish qilish kerakligini bilmaganligi sabab, yangi tug'ilgan chaqaloqi o'limiga sababchi bo'ladi. Onalik rolini bajara olmasligi isbotlanib, Keyt qonunsiz bo'lishi mumkin bo'lgan va endi ijtimoiy rollar unga qo'yadigan cheklovlarga rioya qilmaydigan aqldan ozgan ayolga aylanadi. Tadqiqotchi Frostning fikriga ko'ra, romandagi eng sof va eng haqqoniy lahzalar bu (Keytning "jinniligi"), uning norozi tabiati jamiyatning ayollarga nafaqat ona bo'lish, balki o'z rollarini ijro etish, hech qachon chiziq qoldirmaslik yoki sahna qo'rquvini boshdan kechirmaslik uchun qanday bosim o'tkazayotganini ko'rsatadi (Frost, 1997).

Ona rolini o'ynash qiyin bo'lsa-da, Viktoriya romani qahramonga yo'l-yo'riq ko'rsatish yoki muvaffaqiyatsiz onalikning oqibatlari haqida ogohlantiruvchi hikoya berish uchun onalik xarakterini talab qiladi. Ushbu romanlar, xuddi Ellisning asari kabi, ayollardan, hatto biologik farzand ko'rmaganlardan ham nima kutilishi haqida batafsil ma'lumot beradi. Aynan shu tasvirlar orqali biz ikkala xonimning onaga aylangani va o'zlarining alohida onalik instinktlariga ega bo'lgan o'zgarishlarini ko'rishimiz mumkin. Biroq, onalikning bu tasvirlarida sinfning rolini va uning ona rolini sezilarli darajada yengillashtirish qobiliyatini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Oldkliff xonimning asosiy maqsadi Siteriyaga qanday qilib haqiqiy yosh ayol bo'lishni o'rgatish qolaversa, oilasini boqish paytida unga g'amxo'rlik qila oladigan kishiga turmushga chiqishdir. Boshqa tarafdan, Keyt shimoliy ishchilar sinfini ifodalaganligi sababli, u o'sha xududlarning sharoitlari (tutun, ifloslanish va keyingi astma) tufayli omon qolish ehtimoli past bo'lgan farzandini tarbiyalash uchun yashashi kerak. Xyuges Ketrinning ta'kidlashicha, ushbu qarama-qarshiliklarni tan

olish kerak, chunki ular romanni qanday aniq o'qishimiz mumkinligini shakllantiradi, kontekst ongimizda yozilgan narsalarni emas, balki sahifada nima yozilganini tushunishimizga yordam beradi (Hughes, 2022).

XIX asr romanida onalik va uning qanchalik zarurligiga e'tibor qaratib, endi ota qaerda degan savol tug'iladi? Tadqiqot davomida Siterining otasiga yoki janob Ede va janob Lennoksning sherik va otasi sifatida qaerda yetishmaganiga unchalik ahamiyat berilmagan. XIX asr romanchisi Jorj Yeliot haqida yozuvchi Tohira Jabin shunday deydi: *Uy, ular ish joyida duch keladigan bosimdan farqli o'laroq, bosimsiz o'zlarining erkakliklaridan bahramand bo'lishlari mumkin bo'lgan joy edi. Uy ular uchun tinchlik va osoyishtalik maskani edi. Bu tinchlik va dam olish uyni saqlashi, bolalarni tarbiyalashi va uy hayotini ota uchun panoh bo'lishi kerak bo'lgan ona tomonidan ta'minlangan* (Jabeen, 2022).

Shuning uchun Jabinning ta'kidlashicha, ota uchun uy qulaylik joy bo'lgan, ona esa uni uy xo'jaligi joyi sifatida ko'radi. Shu bilan birga, agar Keytning holatida uning birinchi eri hech qachon uydan chiqmagan va ikkinchi eri hech qachon uyga kelmagan bo'lsa, uy qanday qilib tashqi dunyodan qulaylik joyi bo'lishi mumkin. Xardining romanida, Keytdan farqli o'laroq, Oldkliff hech qachon turmushga chiqmagan, chunki u Siterining otasini sevib qolgan. *Desperate Remedies* va *A Mummer's Wife* romanlari ham "uy"ni haqiqiy otasiz taqdim etadi. Taxira Kumarning ta'kidlashicha, agar otalik timsoli Viktoriyalar oilasiga kerak bo'lsa, unda nega u *Agnes Grey* kabi boshqa ko'plab Viktoriya romanlarida taqdim etilmaydi (Jabeen, 2022).

XIX asr romanlarida ota obrazining mavjud yoki mavjud emasligidan qat'i nazar, ona obrazi oilaviy va ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi muhim figura sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat, bir tomondan, Viktoriya davrida ayollarga yuklangan "ideal ona" modeli va onalik vazifalarini bajarishga bo'lgan ijtimoiy bosim bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, adabiy qahramonlarning ushbu me'yorlarga moslashish yoki ulardan chetlashish jarayoni bilan bog'liq. XIX asr adabiyotida onalikning mavjudligi, onasizlik va surrogat ona munosabatlari qahramonlarning shaxsiy hamda ijtimoiy taqdirini belgilaydigan muhim badiiy omillardan biri sifatida talqin qilinadi. Oldkliff xonim obrazida onalik roli an'anaviy biologik ona modeli doirasidagina emas, balki surrogat onalik va yo'l-yo'riq beruvchi munosabat shaklida namoyon bo'ladi. U Siteriya uchun o'rta sinf ayoli sifatida shakllanish, ijtimoiy me'yorlarni anglash va ularga moslashish jarayonida muayyan namuna vazifasini bajaradi. Shu jihatdan mazkur munosabatni oddiy do'stlik sifatida emas, balki katta avlod ayolining yosh ayol hayotida onaviy funksiyani qisman o'z zimmasiga olishi sifatida talqin qilish mumkin. Keyt obrazida esa onalikning biologik jihatdan amalga oshishi uning ruhiy va ijtimoiy tayyorligi bilan uyg'unlashmaydi. Nikoh va farzandli bo'lish uni avtomatik ravishda "ideal ona" maqomiga olib kelmaydi; aksincha, onalik roliga moslashishdagi qiyinchiliklar uning ichki ziddiyatlarini kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan Keyt obrazi orqali asarda onalikning tabiiy instinktdangina iborat emasligi, balki ijtimoiy jihatdan o'zlashtiriladigan va bajarilishi kutilgan murakkab rol ekani ko'rsatiladi. Natijada onalik me'yorlariga moslasha olmaslik qahramonning shaxsiy inqirozi va ruhiy beqarorligining kuchayishi bilan bog'lanadi. Ushbu ikkita alohida adabiy misolni hisobga olgan holda, biz onalik tazyiqlarini va Viktoriya onalik qiyofasining mukammal timsolini e'tiborsiz qoldira olmaymiz. Bundan tashqari, haqiqiy ona bo'lish yoki boshqa ayolga onalik tuyg'usini berish uchun talab qilinadigan ijroni e'tiborsiz qoldirmasligimiz kerak (Tighe, 2022).

**Xulosa**

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Viktoriya romanida ona obrazi oila va jamiyat barqarorligini ta'minlovchi markaziy omil sifatida talqin qilingan. Garchi ba'zi asarlarda biologik ona mavjud bo'lmasa ham, uning vazifasini bajaruvchi surrogat ona obrazlari muhim tarbiyaviy va axloqiy funksiyani amalga

oshiradi. *Desperate Remedies* romanida miss Oldkliff Siteriya uchun ona vazifasini bajarib, unga ijtimoiy tajriba va hayotiy yo'l-yo'riq beradi. *A Mummer's Wife* romanida esa Keytning onalik rolini muvaffaqiyatli o'zlashtira olmasligi uning shaxsiy fojiasi va ijtimoiy inqiroziga sabab bo'ladi. Bu holat Viktoriya jamiyatida ayollarga nisbatan mavjud bo'lgan qat'iy onalik talablarini namoyon etadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari XIX asr romanlarida ota obraziga nisbatan ona obraziga ko'proq ahamiyat berilganligini ko'rsatadi. Ona shaxsi bola tarbiyasi, oilaviy muhit va axloqiy tartibning asosiy kafolati sifatida tasvirlangan. Demak, Viktoriya adabiyotida onalik nafaqat tabiiy holat, balki ijtimoiy jihatdan shakllantirilgan va doimiy ijroni talab qiluvchi madaniy institut sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa mazkur davr adabiyotida ona obrazining markaziy badiiy va ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

**References:**

1. Ellis, S. S. (1843). *The mothers of England: Their influence and responsibility*. Fisher, Son & Co.
2. Hardy, T. (2009). *Desperate remedies* (P. Ingham, Ed.). Oxford University Press.
3. Frost, G. (1997). Bigamy and cohabitation in Victorian England. *Journal of Family History, 22*(3), 286–306.
4. Hughes, K. (n.d.). *Gender roles in the 19th century*. The British Library. https://www.bl.uk/romantics-and-victorians/articles/gender-roles-in-the-19th-century
5. Jabeen, T., Kumar, T., & Yunus, M. M. (2022). Fathers, daughters, and domesticity in the early novels of George Eliot. *SAGE Open, 12*(3). https://doi.org/10.1177/21582440221120074
6. Tighe, S. M. (2022). *Where are you mama?: The role of motherhood in the Victorian novel* (Senior Project No. 19). Bard College. https://digitalcommons.bard.edu/senproj_f2022/19/

# Combinatorial properties of collocations

**Umarova Shahzoda Ikboljon qizi**
missshahzodaumarova@gmail.com
*PhD researcher,*
*Fergana State University*

**Annotation** *This article examines the combinatorial properties of collocations through the concepts of valency, distribution, combinability, syntagmatic restriction, and combinatorial patterning. The main purpose is to demonstrate that collocations are not simple lexical combinations but systemic units formed through the interaction of semantic, syntactic, lexical, and functional factors. Uzbek, English, and Russian verb–noun and adjective–noun combinations are compared to show how similar or related meanings may be realized through different combinatorial patterns. Valency is interpreted as the internal capacity of a linguistic unit to select other elements; distribution describes its contextual range; combinability reflects normative and conventional compatibility; and syntagmatic restriction defines structural limits on co-occurrence. The article also draws on construction grammar and corpus linguistics to explain the stability and variability of combinatorial patterns. The analysis indicates that collocations cannot be reduced to accidental word adjacency. Rather, they represent structured combinatorial systems stabilized by linguistic convention, semantic selection, recurrent usage, and discourse practice.*

**Keywords** *Valency, distribution, combinability, syntagmatic restriction, corpus linguistics*

# Kollokatsiyalarning kombinator xususiyatlari

**Umarova Shahzoda Iqboljon qizi**
missshahzodaumarova@gmail.com
*2-kurs tayanch doktoranti,*
*Farg'ona davlat universiteti*

**Annotatsiya** *Mazkur maqolada kollokatsiyalarning kombinator xususiyatlari valentlik, distributsiya, bog'lana olishlik, sintagmatik cheklanish va kombinator model tushunchalari asosida nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi kollokatsiyalarning oddiy leksik qo'shilish emas, balki semantik, sintaktik, leksik va funksional omillar o'zaro ta'sirida shakllanuvchi tizimli birlik ekanligini ko'rsatishdan iborat. Tahlilda o'zbek, ingliz va rus tillaridagi fe'l–ot hamda sifat–ot birikmalaridan foydalanilib, mazkur tillarda bir xil yoki yaqin mazmunning turli kombinator modellar orqali ifodalanishi qiyoslanadi. Valentlik birlikning ichki birikish imkoniyatlarini, distributsiya real qo'llanish doirasini, bog'lana olishlik normativ va odatiy moslikni, sintagmatik cheklanish esa birikishning struktur chegaralarini belgilashi asoslanadi. Shuningdek, konstruksiya va korpus lingvistikasi yondashuvlari orqali kombinator modelning barqarorlik hamda variativlik xususiyatlari yoritiladi. Natijada kollokatsiya til birliklarining tasodifiy qo'shilishi emas, balki til tajribasi va me'yorida mustahkamlangan, ichki strukturaga ega kombinator tizim sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv kollokatsiyalarni qiyosiy o'rganishda nazariy mezonlarni aniq belgilash va ularning korpusdagi real qo'llanishini izchil tavsiflash imkonini beradi. Bu natijalar korpus asosidagi tadqiqotlar uchun ham muhim metodologik asos yaratadi.*

The Lingua Spectrum
Cogito, ergo sum

Jurnal Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan 2025-yil 4-yanvar kuni 366/5-sonli qaror bilan tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**Kalit so'zlar** *Valentlik, distributsiya, bog'lana olishlik, sintagmatik cheklanish, kombinator model, korpus lingvistikasi*

# Комбинаторные свойства коллокаций

**Умарова Шахзода Икболжон кизи**
*missshahzodaumarova@gmail.com*
*Докторант 2-го курса (базовая докторантура),*
*Ферганский государственный университет*

OILA freymiga kiruvchi birinchi komponent «ishtirokchilar» slotidir. Unda ota, ona, farzand, aka-uka, opa-singil, turmush o‘rtog‘i, bobo, buvi va boshqa qarindoshlik rollari ifodalanadi. Ingliz tilida father, mother, child, brother, sister, spouse, grandparents kabi birliklar ushbu slotni to‘ldiradi. Mazkur ro‘yxatlar ikki tilda aynan bir xil ijtimoiy tasnif mavjudligini isbotlamaydi, chunki murojaat shakllari va qarindoshlikning tafsilotli nominatsiyasi farqlanishi mumkin.

Ikkinchi komponent «munosabatlar» slotidir. Mehr, g‘amxo‘rlik, hurmat, ishonch, burch va o‘zaro yordam oila haqidagi ijobiy aksiologik tasavvurlarni shakllantiradi. Ingliz tilidagi affection, support, respect, trust, responsibility kabi birliklar semantik jihatdan yaqin bo‘lsa-da, har birining qo‘llanish doirasi alohida. Oila ichidagi munosabatlar faqat ijobiy bo‘lishi shart emas: nizo, masofa, nazorat, begonalashuv kabi salbiy tajribalar ham konseptning tarkibiga kiradi.

Uchinchi komponent «makon» slotidir. Uy, xonadon, ostona, dasturxon singari birliklar o‘zbek tilida oilaviy hayot bilan bog‘liq obrazlar yaratadi. Inglizcha home, hearth, roof, table kabi birliklar ham makonning ijtimoiy va hissiy

talqinini kuchaytirishi mumkin. Biroq ushbu obrazlarning tarixiy va janriy qo'llanishlari farq qiladi; masalan, hearth ko'proq an'anaviy yoki badiiy kontekstlarda uchraydi.

To'rtinchi komponent «vaqt va davomiylik» slotidir. Avlod, nasl, voris, meros, tarbiya kabi birliklar oilaning davomiyligini belgilaydi. Ingliz tilida generation, heritage, inheritance, upbringing, legacy kabi birliklar o'xshash kognitiv hududni ifodalaydi. Bu slot oila haqidagi tasavvurning faqat hozirgi a'zolar yig'indisi emas, balki tarixiy xotira va kelajak mas'uliyati bilan ham bog'liqligini ko'rsatadi.

Beshinchi komponent «amaliyot» slotidir: birga yashash, farzand tarbiyasi, mehnat taqsimoti, g'amxo'rlik, bayram va marosimlar. Kognitiv jihatdan bunday amaliyotlar ssenariylar shaklida uyushadi: oilaviy uchrashuv, mehmon kutish, farzandni tarbiyalash, qarindoshga yordam berish kabi vaziyatlar odatiy ishtirokchi va harakatlar ketma-ketligiga ega. Biroq har bir jamiyatda ssenariylar o'zgaruvchan bo'lib, ular barcha oilalar uchun majburiy me'yor sifatida talqin qilinmaydi.

Aksiologik yadro oilaning qanday qadriyatlar bilan bog'lanishini ifodalaydi. O'zbek tilidagi «mehr», «oqibat», «hurmat», «baraka», «totuvlik» birliklari oilaviy munosabatlarni ijobiy baholashda faol semantik resurs hisoblanadi. Ingliz tilidagi love, care, respect, loyalty, commitment va support ham shunga yaqin qadriy munosabatlarni ifodalashi mumkin. Shunga qaramay, bu birliklarni to'liq ekvivalent deb hisoblash noto'g'ri: masalan, oqibatning ijtimoiy burch va davomli g'amxo'rlik bilan bog'liq qirralari oddiy care so'zi bilan har doim ham to'liq berilmaydi.

Mehr konsepti ko'pincha hissiy yaqinlikni, mas'uliyat esa amaliy harakatni bildiradi. Bu ikki komponentning birlashuvi oila konseptidagi «g'amxo'rlik» modelini yaratadi: yaqinlik faqat his sifatida emas, balki qo'llab-quvvatlash, vaqt ajratish, xavfsizlikni ta'minlash va yordam berish orqali voqelanadi. Ingliz tilidagi *«to care for one's family»* ham ayni munosabatning amaliy jihatini ko'rsatadi.

Hurmat kategoriyasi oila a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy masofa va rollar bilan bog'liq. O'zbek tilida kattalarga murojaatning ayrim odobiy shakllari va «ota-onani hurmat qilish» kabi birliklar ierarxik munosabatni aks ettirishi mumkin. Ingliz tilida respect for parents, mutual respect va family responsibility kabi ifodalar ham hurmatni qadriyat sifatida ifodalaydi. Farqni «bir madaniyat hurmat qiladi, boshqasi qilmaydi» degan xulosaga aylantirish ilmiy jihatdan asossizdir.

Mas'uliyat va mustaqillik o'zaro zid qadriyatlar emas. Oilaviy hayotda qarindoshlarga yordam berish va shaxsiy chegaralarni saqlash birgalikda mavjud bo'lishi mumkin. Shu bois OILA konseptining aksiologik modeli «jamoaviylik – individuallik»ni qattiq qarama-qarshilik sifatida emas, muayyan kontekstlarda turlicha muvozanatlashadigan ikkita yo'nalish sifatida ko'radi.

Ijobiy baho bilan bir qatorda salbiy baho ham tahlil qilinishi kerak. Masalan, oiladagi kelishmovchilik, beparvolik, ishonchsizlik yoki haddan tashqari nazorat kabi hodisalar oila haqidagi ijobiy idealning buzilishi sifatida talqin qilinishi mumkin. Aksiologik oppozitsiyalar mehr – beparvolik, birdamlik – begonalashuv, ishonch – shubha, mas'uliyat – loqaydlik kabi juftliklar orqali izohlanadi.

Maqol va barqaror birikmalar konseptning baholovchi qatlamini o'rganishda qulay materialdir. O'zbek tilidagi *«Ota rozi – Xudo rozi»* maqoli ota roziligi, hurmat va diniy-axloqiy baholashning kesishishini namoyon qiladi. Bu maqolning pragmatik vazifasi turli kontekstlarda nasihat, ogohlantirish yoki xatti-harakatni oqlash bo'lishi mumkin. Uni barcha o'zbek oilalarining real amaliyotini ifodalovchi statistik fakt deb qabul qilib bo'lmaydi.

Ingliz tilidagi «Blood is thicker than water» iborasi qarindoshlik aloqalarining muhimligini ta'kidlash uchun ishlatilishi mumkin. Biroq uning qo'llanishi doim ijobiy emas: ba'zan qarindoshlik majburiyati bilan shaxsiy tanlov o'rtasidagi ziddiyatni ham ko'rsatadi. O'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima

qilinganda obraz tushunarli bo‘lishi mumkin, lekin kommunikativ funksiyani to‘liq saqlash uchun kontekstual sharh talab etiladi.

«*Home is where the heart is*» ifodasi home konseptini jismoniy manzildan ko‘ra hissiy mansublik bilan bog‘laydi. O‘zbekcha «uy» so‘zi ham badiiy va og‘zaki nutqda shunday ko‘chma ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Demak, til birliklari orasidagi farq mutlaq emas; ularni tanlangan kontekst va metaforik faollashuv asosida qiyoslash lozim.

*«Farzand – ko‘zning nuri»* kabi obrazli ifoda farzandning yuqori emotsional qadriyat sifatida tasavvur qilinishini ko‘rsatadi. Ingliz tilidagi «the apple of someone’s eye» iborasi ham aziz insonni baholashga xizmat qiladi, ammo faqat farzandga nisbatan qo‘llanmaydi. Shu bois bu juftlik semantik jihatdan yaqin, lekin referensial va pragmatik doirasi to‘liq bir xil bo‘lmagan ifodalar sifatida tahlil qilinadi.

Paremiologik birliklarni tahlil qilishda uchta savol muhim: ibora qaysi qadriyatni tasdiqlaydi; qanday obraz yoki metaforadan foydalanadi; nutq vaziyatida qanday ta’sir ko‘rsatadi? Bunday ko‘p qatlamli yondashuv maqolning lug‘aviy mazmunini uning normativ yoki kinoyaviy ishlatilishidan farqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, maqollar tarixiy davrlar bo‘yicha o‘zgaradi va bir madaniyat ichida ham qarama-qarshi maqollar mavjud bo‘lishi mumkin.

Kognitiv metafora nazariyasiga ko‘ra, abstrakt munosabatlar ko‘pincha aniqroq tajriba sohalari orqali tushuntiriladi (Lakoff & Johnson, 1980). Oila konseptida *makon, panoh, ildiz, rishta* va *yo‘l* kabi manba sohalari faollashishi mumkin. O‘zbek tilidagi «oila rishtalari», «ildiz», «xonadon tayanchi» singari ifodalar o‘zaro bog‘liqlik, kelib chiqish va barqarorlikni obrazlashtiradi. Ingliz tilidagi family ties, family roots, family bonds ham shu semantik yo‘nalishlarga yaqin.

«Rishtalar» va ties o‘rtasidagi o‘xshashlik munosabatning bog‘lovchi narsa sifatida konseptuallashishini ko‘rsatadi. Bunda manba soha – jismoniy bog‘lanish; maqsad soha – ijtimoiy va hissiy munosabat. Ushbu ko‘chishning aksiologik ma’nosi kontekstga bog‘liq: rishta birdamlikni bildirishi mumkin, biroq ayrim matnlarda cheklov yoki majburiyatni ham anglatishi ehtimol.

«Ildiz» va roots modeli oilani tarixiy davomiylik hamda kelib chiqish bilan bog‘laydi. Family roots ifodasi ingliz tilida nasab va madaniy mansublik haqida so‘zlashda qo‘llanadi; o‘zbekcha «ildizini unutmaslik» ham xotira va avlod davomiyligini ta‘kidlashi mumkin. Biroq aynan bir xil metaforik obrazning mavjudligi barcha ijtimoiy talqinlarning tengligini anglatmaydi.

*«Uy – panoh»* modeli oila va xavfsizlikni bog‘laydi. Inglizcha safe home, a place to belong, o‘zbekcha «uyim – qo‘rg‘onim» kabi ifodalar makonning ijobiy emotsional bahosini yaratadi. Shu bilan birga, real hayotda uy har doim xavfsiz bo‘lavermaydi; konseptual ideal bilan ijtimoiy voqelikni farqlash aksiologik tahlilning zarur shartidir.

Metaforik modellarni o‘rganishda konseptual xaritalash va oddiy obrazli so‘z qo‘llanishini bir-biridan ajratish lozim. Bitta metafora asosida umumiy kognitiv mexanizm mavjudligi haqida qat’iy xulosa chiqarishdan ko‘ra, bir nechta mustaqil misol va korpusdagi takroriy qo‘llanishlar bilan dalillash afzal. Mazkur maqolada modellar sifat jihatdan tavsiflanadi, ularning chastotasi yoki ustunligi haqidagi da’vo ilgari surilmaydi.

Lingvomadaniy qiyoslashda birinchi xavf – milliy madaniyatlarni bir jinsli tizim sifatida tasvirlashdir. Ingliz tilida so‘zlovchilar turli mamlakatlar, avlodlar, ijtimoiy qatlamlar va madaniy tajribalarga mansub. O‘zbek tilida ham shahar-qishloq, avlod, ta’lim, kasb va individual tajriba farqlari mavjud. Shu sababli qiyoslash til birliklarining ehtimoliy semantik tendensiyalariga qaratilishi, jamiyat haqida haddan tashqari umumiy xulosalardan saqlanishi kerak.

Ikkinchi muammo – ekvivalentlik darajasidir. Family so‘zi ko‘pincha oila deb tarjima qilinadi, ammo «extended family», «family business», «chosen family» kabi birikmalarda kontekstga qarab izohli tarjima

zarur bo‘lishi mumkin. O‘zbekcha xonadon so‘zining inglizchaga tarjimasi ham vaziyatga ko‘ra household, family, home yoki boshqa ifoda bo‘lishi mumkin.

Uchinchi muammo – aksiologik konnotatsiyani saqlash. Masalan, o‘zbekcha «oqibatli farzand» iborasini faqat caring child deb berish ayrim vaziyatlarda yaqin ma’no beradi, ammo avlodlararo mas’uliyat, ehtirom va ijtimoiy burch kabi qo‘shimcha qirralarni har doim ham to‘liq aks ettirmaydi. Tarjimada «dutiful and caring child» kabi kengaytirilgan yechimlar kontekstga qarab mos kelishi mumkin.

To‘rtinchi muammo – pragmatik ekvivalentlik. «Blood is thicker than water»ning so‘zma-so‘z tarjimasi obrazni saqlasa ham, o‘zbek kitobxoni uchun uning vazifasini tushuntirish talab etilishi mumkin. Aksincha, «Ota rozi – Xudo rozi» maqolini inglizchaga tarjima qilishda diniy komponentni neytrallashtirish uning aksiologik asosini o‘zgartiradi. Bunday holatda tarjima strategiyasi matn janri, auditoriya va kommunikativ maqsadga bog‘liq.

Beshinchi muammo – baholashning kontekstga bog‘liqligi. «Family first» ifodasi birdamlikni tasdiqlashi ham, tanqidiy vaziyatda individual erkinlikka qarshi qo‘yilgan me’yor sifatida ishlatilishi ham mumkin. Xuddi shunday, «oila sha’ni» birikmasi ijobiy ijtimoiy mas’uliyatni yoki ayrim matnlarda ortiqcha bosimni anglatishi mumkin. Demak, tarjimashunoslik tahlilida faqat lug‘aviy ekvivalent emas, so‘zlovchining bahosi ham aniqlanishi kerak.

Sifat tahlili asosida OILA konseptining umumiy yadrosini quyidagi komponentlar bilan tavsiflash mumkin: qarindoshlik yoki yaqinlik, o‘zaro g‘amxo‘rlik, mansublik, mas’uliyat, avlodlar davomiyligi va yashash muhiti. Ushbu komponentlar ikki tilning barcha birliklarida bir xil darajada aks etmaydi; ular turli nominatsiyalar va diskurslarda navbatma-navbat faollashadi.

O‘zbekcha oila va inglizcha family umumiy referensial maydonga ega bo‘lsa-da, xonadon – household va uy – home juftliklari kontekstga sezgirroq. Bu holat tarjimada so‘zning asosiy denotatsiyasi bilan birga uning emotsional, ijtimoiy va madaniy konnotatsiyasini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Frazeologik birliklarda *rishta, ildiz* va *panoh* metaforalarining uchrashi oila haqidagi tasavvurlarni jismoniy bog‘lanish, tarixiy davomiylik va xavfsizlik bilan konseptuallashtirish imkonini beradi. Mazkur modellar ikki tilda ham tushunarli bo‘lishi mumkin, ammo ularning nutqiy faolligi va janriy tarqalishi mustaqil korpus tadqiqotini talab qiladi.

Aksiologik jihatdan ijobiy qutbda mehr, hurmat, ishonch, qo‘llab-quvvatlash va mas’uliyat; salbiy qutbda esa beparvolik, ishonchsizlik, begonalashuv va nizolar joylashadi. Bu qarama-qarshiliklar oila konseptining baholovchi tizimini tashkil qiladi, lekin har bir birlikning bahosi konkret kontekstda qayta shakllanishi mumkin.

Qiyoslash natijalarini to‘rt qatlamli ishchi modelda ifodalash taklif etiladi: nominativ qatlam (oila/family va yaqin birliklar), freym qatlam (ishtirokchilar, munosabatlar, makon, davomiylik), aksiologik qatlam (ijobiy va salbiy baholar), pragmatik qatlam (nasihat, hamdardlik, maqtov, tanqid va tarjima strategiyasi). Ushbu model keyingi korpus tadqiqotlari uchun sinovdan o‘tkazilishi mumkin.

Natijalar OILA konseptini bitta lug‘aviy birlikka tenglashtirmaslik zarurligini ko‘rsatadi. Konseptning ko‘p qatlamli tuzilishi uning nominativ, kognitiv, aksiologik va pragmatik ko‘rsatkichlarini farqlashni talab qiladi. Bunday farqlash so‘z ma’nosi bilan madaniy qadriyatni avtomatik tenglashtirish xavfini kamaytiradi.

Tadqiqotning kuchli tomoni shundaki, bir xil konsept ikki tilda bir nechta semantik yo‘nalish orqali tavsiflanadi. Lekin metodning cheklovi ham aniq: tanlangan misollar tilning butun korpusini ifodalamaydi. Kelgusida muvozanatli matn korpuslaridan oila va family atrofidagi kollokatsiyalar, baholovchi sifatlar,

metaforik konstruksiyalar hamda nutq janrlarini tanlab, chastotaviy va statistik taqqoslash zarur.

Bundan tashqari, turli avlod vakillari ishtirokida assotsiativ tajriba o‘tkazish orqali konsept yadrosi haqidagi farazlarni tekshirish mumkin. Respondentlardan oila yoki family so‘ziga birinchi assotsiatsiyalarni keltirish, ijobiy va salbiy baholovchi birliklarni ajratish, tanlangan maqollarning qo‘llanish vaziyatini izohlash so‘ralishi mumkin. Bunday ma’lumotlar hozirgi maqolada yig‘ilmaganligi sababli natija sifatida taqdim etilmaydi.

Gnoseologik nuqtayi nazardan oila haqidagi bilim til orqali faqat aks ettirilmaydi, balki nutqiy faoliyatda qayta tashkil etiladi. Masalan, nasihatda bir xil ibora me’yorni mustahkamlashi, badiiy matnda esa shu me’yor tanqid qilinishi mumkin. Shu bois konseptni barqaror lug‘aviy sxema va o‘zgaruvchan kommunikativ jarayonning o‘zaro munosabati sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq.

Qiyosiy modelning birinchi mezoni denotativ moslikdir. Bunda qaysi birliklar bir xil ijtimoiy referentni bildirishi tekshiriladi. Masalan, family va oila ko‘p hollarda bir xil tushunchaga ishora qiladi, ammo inglizcha household hamda o‘zbekcha xonadon muayyan matnlarda uy xo‘jaligi, nasl yoki yashash joyi bilan bog‘liq qo‘shimcha ma’nolarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun qiyoslashda bir xil referentning mavjudligi semantik to‘liqlikni anglatmasligi alohida qayd etiladi.

Ikkinchi mezon konseptual profilning mosligidir. Bu yerda muayyan birlikning qaysi freym slotini oldinga chiqarishi aniqlanadi. Masalan, ota-ona yoki parents ishtirokchilar slotini faollashtirsa, ro‘zg‘or va household kundalik faoliyat bilan bog‘liq slotni ko‘proq yoritishi mumkin. «Avlod» va generation esa tarixiy davomiylikni oldinga chiqaradi. Bunday profilni farqlash konseptning qaysi qismi til birligi orqali voqelanayotganini aniqlashtiradi.

Uchinchi mezon aksiologik yo‘nalishdir. Birlik ijobiy, salbiy yoki kontekstga bog‘liq ikkiyoqlama bahoni ifodalashi mumkin. «Oilaparvar» so‘zi ko‘pincha ijobiy bahoni anglatadi; «oila bosimi» birikmasi esa salbiy tajribani faollashtiradi. Inglizcha family-oriented ijobiy mazmunda qo‘llanishi mumkin, family pressure esa ijtimoiy cheklovni bildiradi. Mazkur juftliklar oilaga doir qadriyatlar bir xil konsept ichida qarama-qarshi baholovchi yo‘nalishlarga ega bo‘lishini ko‘rsatadi.

To‘rtinchi mezon metaforik moslikdir. Family roots va «oila ildizlari» kabi ifodalarda bir xil manba soha ishlatilishi mumkin. Biroq bir xil metafora mavjudligi uning pragmatik vazifasi ham bir xil degani emas. Badiiy matnda ildiz o‘zlikni anglash vositasi bo‘lsa, publitsistik matnda nasabga urg‘u berishi, shaxsiy suhbatda esa xotira yoki sog‘inchni ifodalashi mumkin.

Beshinchi mezon nutqiy vazifadir. Oila bilan bog‘liq birliklar tabrik, nasihat, munozara, tarjimai hol, huquqiy hujjat, reklama va badiiy tasvirda turlicha funksiyalarni bajaradi. «Oila qadriyatlari» va family values birikmalari o‘xshash tarjima ekvivalenti bo‘lsa-da, ularning siyosiy yoki diniy matnlardagi talqini alohida tekshirilishi zarur. Ayniqsa, normativ mazmundagi matnni tavsifiy matndan ajratish konseptual tahlilning muhim talabidir.

Oltinchi mezon tarixiy va avlodlararo o‘zgarishdir. Oila a’zolari, nikoh, farzand tarbiyasi va yashash joyiga doir birliklarning bahosi davrlar davomida o‘zgarishi mumkin. Bunday o‘zgarish haqidagi farazlarni isbotlash uchun turli yillardagi matnlar va so‘zlovchilar guruhlari bo‘yicha ma’lumot to‘plash zarur. Hozirgi sifat tahlili tarixiy o‘zgarishni o‘lchamaydi, faqat kelgusi tadqiqot uchun tahliliy parametrni taklif etadi.

Yettinchi mezon tarjimadagi yo‘qotish va kompensatsiyadir. Agar bitta tildagi birlik boshqa tilda bevosita muqobilga ega bo‘lmasa, tarjimon izohlash, semantik kengaytirish, madaniy sharh yoki pragmatik moslashtirish strategiyasini tanlashi mumkin. Masalan, «oqibat» so‘zining ayrim qo‘llanishlarida oddiy kindness tarjimasi davomiy qarindoshlik burchini to‘liq bermasligi ehtimol. Shu bois tarjima tanlovi so‘zning izohli lug‘atdagi

ma’nosiga emas, konkret matndagi konseptual profilga tayanishi lozim.

Sakkizinchi mezon dalilning ishonchliligidir. Qiyosiy tadqiqotlarda uchraydigan keng tarqalgan xatolardan biri tanlangan ikki yoki uchta maqol asosida butun xalqning qadriyat tizimi haqida hukm chiqarishdir. Ishonchli umumlashtirish uchun manbalarning janriy muvozanati, matnlarning davriy tarkibi, kontekstlar soni va birliklarning haqiqiy qo‘llanish chastotasi tekshirilishi kerak. Mazkur maqoladagi tavsiflar metodologik namuna bo‘lib, keng qamrovli statistik xulosa o‘rnini bosmaydi.

To‘qqizinchi mezon so‘zlovchi pozitsiyasidir. Bir xil maqol turli nutqiy vaziyatlarda ijobiy nasihat, kinoya, tanqid yoki qarshilik ifodasi bo‘lib kelishi mumkin. Shuning uchun baholovchi birlikning aksiologik ma’nosi uning tarixan shakllangan lug‘aviy mazmuni bilan birga so‘zlovchining niyati va tinglovchining talqiniga ham bog‘liq. Ushbu parametrni hisobga olish ayniqsa badiiy dialog va ijtimoiy tarmoq diskursini tahlil qilishda zarur.

O‘ninchi mezon konsept chegarasidir. *Oila* konsepti bilan *qarindoshlik, uy, tarbiya, muhabbat* va *mas’uliyat* konseptlari kesishadi, ammo bir-birini to‘liq qamrab olmaydi. Tadqiqotchi har bir birlikni aynan qaysi konseptual qatlamga kiritayotganini ko‘rsatishi kerak. Shu tartibda tashkil etilgan model konseptlararo munosabatlarni izohlash, tasnifda takrorlanishlarning oldini olish va ikki til materialini yagona metodologik asosda qiyoslash imkonini beradi.

Mazkur mavzuni keyingi bosqichda rivojlantirish uchun avvalo o‘zbek va ingliz tillaridagi matnlarni janrlar bo‘yicha qiyosiy tanlash talab etiladi. Badiiy adabiyot, ommaviy axborot vositalari, ta’lim materiallari, shaxsiy suhbatlar va rasmiy hujjatlarda oila bilan bog‘liq birliklar turli kommunikativ vazifalarni bajaradi. Shu sababli yagona korpusga faqat bitta janr matnlarini kiritish konseptning ko‘p qirraliligini to‘liq yoritmaydi. Har bir janr uchun alohida kichik korpus tuzish va natijalarni keyinchalik birlashtirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi istiqbolli yo‘nalish assotsiativ eksperimentdir. Ishtirokchilardan «oila» yoki «family» so‘ziga bog‘liq birinchi beshta tasavvurni yozish, so‘ngra ularni hissiy, ijtimoiy, makoniy va me’yoriy guruhlarga ajratish so‘ralishi mumkin. Bunday tajribada yosh, jins, til bilish darajasi va yashash muhiti kabi omillar oldindan qayd etilishi kerak. Assotsiatsiyalar soni va takrorlanish darajasi prototipik yadro haqidagi taxminlarni sinashga yordam beradi. Lekin bunday eksperiment o‘tkazilmaguncha uning natijalari haqida xulosa berish mumkin emas.

Uchinchi yo‘nalish korpusdagi kollokatsiyalarni o‘rganishdir. O‘zbekcha oila so‘zi bilan birga ishlatiladigan sifatlar, fe’llar va otlar, inglizcha family bilan birikadigan birliklar tizimli qayd etilishi mumkin. Masalan, «mustahkam oila», «baxtli oila», «oilani asrash» kabi birliklarning inglizcha strong family, happy family, support a family kabi konstruksiyalar bilan funksional munosabati tekshiriladi. Bunda kollokatsiya mavjudligi bilan uning chastotasi, ma’noviy yaqinligi bilan pragmatik tengligini aralashtirmaslik lozim.

To‘rtinchi yo‘nalish diaxronik tahlildir. Turli davrlarda yozilgan matnlar oilaning ijtimoiy roli va qadriyatlarining qanday ifodalanganini ko‘rsatishi mumkin. Masalan, tarixiy romanlarda avlod va nasab birliklari, zamonaviy publitsistikada esa ish va oila muvozanati kabi mavzularning faollashuvi tadqiq etilishi mumkin. Bunday farazlarni asoslash uchun vaqt kesimlari teng va janr jihatidan solishtiriladigan material bo‘lishi kerak.

Beshinchi yo‘nalish tarjimaviy ekvivalentlikning tajribaviy tekshiruvidir. Bir nechta mustaqil tarjimonga oila bilan bog‘liq maqol va frazeologizmlarni tarjima qilish topshirilib, ularning strategiyalari solishtirilishi mumkin. So‘zma-so‘z tarjima, izohli tarjima, funksional muqobil va madaniy moslashtirish natijalari matn turi hamda o‘quvchi ehtiyojiga ko‘ra baholanadi. Shu orqali konseptual-

aksiologik modelning amaliy qo‘llanish darajasi haqida dalilga asoslangan xulosa chiqarish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Oltinchi yo‘nalish oilaga oid baholovchi birliklarning nutqdagi ziddiyatli qo‘llanishini o‘rganishdir. «Mas’uliyat» ba’zi kontekstlarda g‘amxo‘rlik, boshqa vaziyatlarda esa haddan tashqari majburiyatni anglatishi mumkin. «Mustaqillik» bir matnda shaxsiy yetuklikni, boshqa matnda yaqinlardan uzoqlashishni bildirishi ehtimol. Bunday semantik siljishlarni faqat lug‘aviy ma’no bilan tushuntirib bo‘lmaydi. Ular kommunikativ vaziyat, nutq janri, so‘zlovchi pozitsiyasi va ijtimoiy kutishlar bilan birga tahlil qilinishi lozim.

OILA konseptini lingvokognitiv tahlil qilishda biologik qarindoshlik, huquqiy nikoh, birgalikdagi turmush va emotsional yaqinlik tushunchalarini bir-biridan farqlash zarur. Masalan, o‘zbek tilidagi “oila a’zosi” ifodasi muayyan ijtimoiy guruhga mansublikni bildirsa, “o‘z odamimiz” birikmasi qon-qarindoshlikdan tashqariga chiqadigan ishonch va yaqinlikni ham ifodalashi mumkin. Ingliz tilidagi “family member” va “one of the family” birliklari o‘rtasida ham shunga o‘xshash semantik masofa kuzatiladi. Biroq bunday yaqinlik ikki tildagi birliklarning har bir kontekstda to‘liq o‘zaro almashtirilishini anglatmaydi. Ularning qo‘llanishi kommunikativ vaziyat, ishtirokchilar munosabati va nutq maqsadiga bog‘liq.

Aksiologik baholashning o‘zgaruvchanligi *“oilaparvar”* va *“family-oriented”* birliklari orqali ko‘rinadi. Har ikkisi odatda ijobiy sifatni bildirishi mumkin, ammo baholashning markazi bir xil emas: birinchi birlik oila manfaatiga sadoqatni ta’kidlashi, ikkinchisi esa shaxsning ustuvor yo‘nalishlarini tavsiflashi mumkin. Ish muhitida, shaxsiy munosabatda yoki ijtimoiy reklamada bu sifatlarning talqini turlicha bo‘ladi. Demak, aksiologik ekvivalentlikni aniqlashda lug‘aviy o‘xshashlik bilan cheklanmasdan, baholash subyekti, mezoni va pragmatik oqibatini ham tekshirish lozim.

Konsept chegaralarini aniqlashda “uy” va “home” juftligi alohida e’tiborga loyiq. Har ikkala birlik yashash makonini ifodalasa-da, ularda o‘zini xavfsiz his qilish, yaqinlar bilan birga bo‘lish va tegishlilik tuyg‘usi kabi qo‘shimcha semalar ham faollashadi. Shu bilan birga, “uy” har doim ham *“oila”* bilan aynan bir tushuncha emas; yolg‘iz yashovchi shaxsning uyi ham mavjud. Xuddi shuningdek, *“home”* so‘zi muayyan bino, tug‘ilib o‘sgan hudud yoki hissiy bog‘liqlik makonini bildirishi mumkin. Mazkur ko‘pma’nolilik OILA konseptining leksik ifodasi bilan uning keng assotsiativ maydonini metodologik jihatdan ajratishni talab qiladi.

O‘zbek tilidagi *“aka”, “uka”, “opa”, “singil”* birliklari qarindoshlikning yoshga asoslangan ichki differensiatsiyasini leksik jihatdan ochiq belgilaydi. Ingliz tilidagi “brother” va “sister” esa odatda shu qarama-qarshilikni asosiy leksik ma’noda kodlamaydi; yosh tafovuti “older brother”, “younger sister” kabi aniqlovchilar orqali ifodalanadi. Ushbu tafovutdan ijtimoiy munosabatlarning qat’iy darajasi haqida mutlaq xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Shunga qaramay, nomlash tizimining o‘zi qaysi axborot muntazam ravishda leksiklashishini ko‘rsatadi. Bu holat konseptual tuzilmaning lisoniy tanlovga ta’sirini o‘rganish uchun samarali qiyosiy mezondir.

Qarindoshlik terminlarining murojaat vazifasida qo‘llanishi ham konseptning pragmatik qatlamini ochadi. O‘zbek tilida “opa” yoki “aka” ayrim vaziyatlarda qarindosh bo‘lmagan kishiga hurmat va ijtimoiy yaqinlik ifodalovchi murojaat sifatida ishlatiladi. Ingliz tilida esa “brother” va “sister”ning bunday ishlatilishi ma’lum diniy, guruhiy yoki norasmiy muhit bilan bog‘lanishi mumkin. Mazkur qiyoslash birliklarning qaysi biri “ko‘proq hurmatli” ekanini emas, balki murojaat shaklining qanday ijtimoiy ma’nolarni faollashtirishini aniqlashga xizmat qiladi.

Oila freymida rol va qadriyat o‘rtasidagi munosabat ham bir yo‘nalishli emas. “Ota” va “mother” kabi birliklar avvalo ijtimoiy-qarindoshlik rolini belgilaydi; g‘amxo‘rlik, mas’uliyat yoki fidoyilik kabi belgilar esa kontekstda faollashadigan baholovchi komponentlardir. Bu farqni saqlash muhim: aks

holda ma'lum ijtimoiy stereotip konseptning barcha qo'llanishlariga majburan tatbiq etiladi. Kognitiv tahlilda rollarning prototipik tavsifi bilan real oilaviy tajribalarning xilma-xilligini alohida ko'rsatish ilmiy xolislikni kuchaytiradi.

*Oila* konseptiga oid birliklarni tarjima qilishda nominativ muvofiqlik, konseptual yaqinlik va pragmatik adekvatlik alohida tekshirilishi kerak. "Oila davrasi"ni "family circle" shaklida berish ba'zi vaziyatlarda tabiiy bo'lsa, boshqa kontekstlarda "with the family" ifodasi nutq maqsadiga mosroq kelishi mumkin. Shuningdek, "oilaviy qadriyatlar" va "family values" birikmalari shaklan yaqin, biroq turli diskurslarda ular ijtimoiy siyosat, tarbiya yoki shaxsiy hayotga oid turli munozaralarni faollashtiradi. Shu sababli tarjimon so'zlarning umumiy lug'aviy ma'nosi bilan birga ularning baholovchi yukini ham hisobga olishi zarur.

Paremiologik materiallarda so'zma-so'z tarjima ayniqsa ehtiyotkorlikni talab qiladi. Maqolning vazifasi faqat xabar berish emas, balki muayyan xulq-atvor me'yorini tasdiqlash yoki tanqid qilish ham bo'lishi mumkin. Ingliz va o'zbek tillaridagi oila haqidagi maqollarni qiyoslashda avvalo kommunikativ vazifa, keyin semantik yadro va nihoyat obrazli shakl tekshirilsa, soxta ekvivalentlik xavfi kamayadi. Bir xil mavzuga tegishli ikki maqol avtomatik tarzda o'zaro tarjima ekvivalenti bo'lib qolmaydi. Ularning nutqiy qo'llanish doirasi va baholash kuchi ham mos kelishi lozim.

Madaniyatlararo muloqotda "yaqin oila", "katta oila" va "qarindoshlar" haqidagi tasavvurlarni bir xillashtirish xatoga olib kelishi mumkin. Ingliz tilidagi "immediate family" odatda yaqin qarindoshlik doirasini aniq chegaralashga xizmat qiladi; o'zbek tilidagi "yaqinlar" esa muayyan kontekstda qarindoshlikdan kengroq hissiy munosabatni bildirishi mumkin. Demak, konseptual-aksiologik tahlil tarjimada faqat lug'atdagi moslikni emas, balki ma'no chegarasi, hissiy rang va kommunikativ niyatni birgalikda baholashni talab qiladi.

O'zbek va ingliz tillarida *oila* konsepti qarindoshlik, hissiy yaqinlik, g'amxo'rlik, mansublik, mas'uliyat va avlodlar davomiyligini birlashtiruvchi ko'p qatlamli kognitiv-aksiologik tuzilma sifatida talqin qilinishi mumkin.

Konseptning nominativ maydonida oila/family yadro birliklari bilan bir qatorda xonadon/household, uy/home, ro'zg'or va boshqa birikmalar turli semantik qirralarni faollashtiradi. Ushbu birliklar tarjimada har doim to'liq mos kelmaydi.

Frazeologik va paremiologik materiallarda *rishta, ildiz* va *panoh* singari metaforik modellar hamda mehr – beparvolik, ishonch – shubha, birdamlik – begonalashuv kabi aksiologik oppozitsiyalar aniqlash uchun samarali tahlil mezonlari hisoblanadi.

**References:**

1. Fillmore, C. J. (1982). *Frame semantics*. In The Linguistic Society of Korea (Ed.), Linguistics in the Morning Calm. 111–137. Hanshin Publishing Company.
2. Lakoff, G. (1987). *Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind*. University of Chicago Press.
3. Lakoff, G., & Johnson M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
4. Murdock, G. P. (1949). *Social Structure*. Macmillan.
5. Wierzbicka, A. (1997). *Understanding Cultures Through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese*. Oxford University Press.

The Lingua Spectrum
Cogito, ergo sum

Jurnal Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan 2025-yil 4-yanvar kuni 366/5-sonli qaror bilan tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

# Linguocultural analysis of oral discourse: key parameters and methodological cautions

**Kosheva Dilrabo Khudoyorovna**[3]
*dilrobokosheva@gmail.com*
*Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor,*
*Uzbek State World Languages University*

**Annotation** *The article examines key parameters of the linguocultural analysis of oral discourse and the related methodological cautions. Unlike written text, speech is produced in real time, in a specific situation and within social relations. Its cultural content therefore lies not only in lexical units but also in forms of address, speech genres, turn-taking, prosody, gesture and even silence. The study draws on Hymes's ethnography of speaking, Gumperz's interactional sociolinguistics, politeness theory, Wierzbicka and Goddard's cultural scripts, and Sharifian's cultural conceptualisations. Based on Uzbek spoken data, ten parameters are identified: communicative situation, participant hierarchy, forms of address, politeness strategies, ritual genres, cultural concepts, implicit meaning, prosody, nonverbal means and code-switching. Typical pitfalls are discussed: treating culture as homogeneous and fixed, losing prosody in transcription, the observer's paradox, and research ethics. Cultural interpretation is shown to be reliable only when grounded in discourse analysis. The findings can inform the annotation of spoken corpora and the study of intercultural communication.*

**Keywords** *Oral discourse, linguoculturology, ethnography of speaking, cultural script, contextualization cues, politeness, Uzbek communicative culture*

# Og'zaki diskursni lingvokulturologik tahlil qilish: asosiy parametrlar va metodologik ehtiyot choralari

**Kosheva Dilrabo Xudoyorovna**
*dilrobokosheva@gmail.com*
*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, Dotsent,*
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

**Annotatsiya** *Maqolada og'zaki diskursni lingvokulturologik tahlil qilishda e'tiborga olinadigan asosiy parametrlar va metodologik ehtiyot choralari ko'rib chiqiladi. Og'zaki nutq yozma matndan farqli o'laroq real vaqtda, muayyan vaziyatda va ijtimoiy munosabatlar ichida yuzaga keladi. Shu sababli uning madaniy mazmuni faqat leksik birliklarda emas, balki murojaat shakllarida, nutq janrlarida, navbatlashish tartibida, prosodiyada, imo-ishorada va hatto sukutda ham namoyon bo'ladi. Tadqiqotda D. Hymesning nutq etnografiyasi, J. Gumperzning interaksion sotsiolingvistikasi, xushmuomalalik nazariyalari, A. Wierzbicka va C. Goddardning madaniy skriptlar konsepsiyasi hamda F. Sharifianning madaniy konseptualizatsiyalar nazariyasi tayanch sifatida olinadi. O'zbek og'zaki muloqotidan olingan misollar asosida tahlilning o'nta parametri ajratiladi: muloqot vaziyati, ishtirokchilar ierarxiyasi, murojaat shakllari, xushmuomalalik strategiyalari, ritual janrlar, madaniy konseptlar, implitsit mazmun, prosodiya, noverbal vositalar*

[3] Kosheva D.Kh. — ORCID: 0000-0001-5276-0608

*va kod almashinuvi. Tadqiqotchi duch keladigan tipik xatolar — madaniyatni yaxlit va o‘zgarmas deb tasavvur qilish, transkripsiyada prosodik ma’lumotni yo‘qotish, kuzatuvchi paradoksi va etik masalalar tahlil qilinadi. Madaniy talqin diskursiv tahlilga tayangandagina ishonchli bo‘lishi ko‘rsatiladi. Natijalardan og‘zaki korpuslarni annotatsiya qilishda va madaniyatlararo muloqotni o‘rganishda foydalanish mumkin.*

**Kalit so‘zlar** *Og‘zaki diskurs, lingvokulturologiya, nutq etnografiyasi, madaniy skript, kontekstuallashtirish belgilari, xushmuomalalik, o‘zbek muloqot madaniyati*

## Лингвокультурологический анализ устного дискурса: основные параметры и методологические предостережения

**Кошева Дилрабо Худоёровна**
*dilrobokosheva@gmail.com*
*Доктор философии (PhD) по филологическим наукам, Доцент, Узбекский государственный университет мировых языков*

**Аннотация** *В статье рассматриваются основные параметры, значимые для лингвокультурологического анализа устного дискурса, и методологические предостережения. В отличие от письменного текста, устная речь порождается в реальном времени, в конкретной ситуации и в определённых социальных отношениях. Поэтому её культурное содержание проявляется не только в лексических единицах, но и в формах обращения, речевых жанрах, порядке смены реплик, просодии, жестах и даже в молчании. Теоретическую основу составляют этнография речи Д. Хаймса, интеракциональная социолингвистика Дж. Гамперца, теории вежливости, концепция культурных сценариев А. Вежбицкой и К. Годдарда и теория культурных концептуализаций Ф. Шарифиана. На материале узбекской устной коммуникации выделяются десять параметров анализа: ситуация общения, иерархия участников, формы обращения, стратегии вежливости, ритуальные жанры, культурные концепты, имплицитное содержание, просодия, невербальные средства и переключение кодов. Рассматриваются типичные ошибки исследователя: восприятие культуры как единой и неизменной системы, потеря просодической информации при транскрипции, парадокс наблюдателя и этические вопросы. Показано, что культурная интерпретация надёжна лишь при опоре на дискурсивный анализ. Результаты применимы при аннотировании устных корпусов и изучении межкультурной коммуникации.*

**Ключевые слова** *Устный дискурс, лингвокультурология, этнография речи, культурный сценарий, сигналы контекстуализации, вежливость, узбекская коммуникативная культура*

**Kirish**

Lingvokulturologiya so‘nggi o‘ttiz yil ichida tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishiga aylandi. Rus tilshunosligida uning nazariy asoslari V.V. Vorobyov (1997), V.N. Teliya (1996) va V.A. Maslova (2001) ishlarida shakllantirildi. G‘arb tilshunosligida yaqin masalalar avval nutq etnografiyasi va antropologik tilshunoslik, keyinroq esa F. Sharifian (2011, 2017) asos solgan madaniy tilshunoslik (Cultural Linguistics) doirasida o‘rganilmoqda. O‘zbek tilshunosligida ham nutqning pragmatik va milliy-madaniy jihatlariga qiziqish sezilarli darajada ortdi: Sh. Safarov (2008) pragmalingvistikaning nazariy asoslarini yoritdi, M. Hakimov (2013) o‘zbek pragmalingvistikasini tizimli tavsiflab berdi, N. Mahmudov (2012) esa tilni inson va madaniyat bilan uzviy aloqada o‘rganish zarurligini asoslab berdi.

Shunga qaramay, lingvokulturologik tadqiqotlarning katta qismi hanuzgacha leksika, frazeologiya, paremiologiya va badiiy matn materialiga tayanadi. Buning sababi tushunarli: lug‘at va yozma matn barqaror material, uni istalgancha qayta o‘qib chiqish mumkin. Og‘zaki diskurs esa o‘tkinchi, vaziyatga bog‘liq va ko‘p kanalli hodisa – unda so‘z, ovoz va tana bir vaqtda ishlaydi, mazmunni esa ishtirokchilar birgalikda quradi. N.D. Arutyunova diskursni hayotga botirilgan nutq deb ta’riflagan edi (Arutyunova, 1990; 136–137); bu xususiyat og‘zaki muloqotda eng yaqqol ko‘rinadi.

Demak, og‘zaki diskursni lingvokulturologik tahlil qilish leksik-semantik tahlildan kengroq tadqiqotni talab qiladi. Amaliyotda esa ko‘p ishlarda tahlil madaniy markerli so‘zlarni sanab chiqish bilan cheklanib qoladi. Muloqot qanday tashkil etilgani, kim kimga qanday murojaat qilgani, gap qaysi ohangda aytilgani, nima aytilmay qolgani esa nazardan chetda qoladi.

Ushbu maqolaning maqsadi og‘zaki diskursni lingvokulturologik tahlil qilishda nimalar tahlilga tortilishi lozimligini tizimlashtirish va tadqiqotchi ko‘pincha e’tibordan chetda qoldiradigan metodologik nuqtalarni ko‘rsatishdan iborat. Misollar o‘zbek tilidagi kundalik muloqotdan olingan. Ular muayyan hodisani ko‘rsatish uchun keltirilgan bo‘lib, statistik umumlashma sifatida qaralmasligi kerak.

**Nazariy-metodologik asoslar**

Og‘zaki diskursni madaniyat nuqtai nazaridan o‘rganishda bitta nazariya yetarli emas. Har bir yondashuv muloqotning bir qatlamini yoritadi, shuning uchun amalda ular bir-birini to‘ldiradi. D. Hymes (1974) nutqni madaniy faoliyat sifatida o‘rganishni taklif qildi va nutq hodisasini tavsiflash uchun SPEAKING deb nomlangan modelni ishlab chiqdi. Bu model tadqiqotchiga muloqot vaziyatini tizimli tavsiflash imkonini beradi va tahlilning birinchi bosqichi uchun hozirgacha qulay vosita bo‘lib qolmoqda.

| Komponent | Mazmuni | O‘zbek muloqotidan misol |
|---|---|---|
| ***Setting / Scene*** | Joy, vaqt va vaziyatning psixologik-madaniy ta’rifi | To‘y, ta’ziya, choyxona gurungi, kafedra majlisi |
| ***Participants*** | So‘zlovchi, tinglovchi, guvohlar va ularning rollari | Kuyov tomon va kelin tomon vakillari, mehmon va mezbon |
| ***Ends*** | Muloqotning maqsadi va kutilgan natija | Sovchilikda rozilik olish, ta’ziyada hamdardlik bildirish |
| ***Act sequence*** | Nutq aktlarining shakli va izchilligi | So‘rashish → asosiy mavzu → duo/tilak bilan yakunlash |
| ***Key*** | Ohang, kayfiyat, jiddiylik darajasi | Hazil-mutoyiba, rasmiy ohang, ta’ziyadagi past ovoz |
| ***Instrumentalities*** | Kanal va til variantlari | Adabiy til, sheva, o‘zbek-rus kod almashinuvi |
| ***Norms*** | O‘zaro ta’sir va talqin normalari | Kattaning so‘zini bo‘lmaslik, yoshi kichikning oldin salom berishi |
| ***Genre*** | Nutq janri | Duo, olqish, maslahat, gurung, nasihat |

**1-jadval.** *D. Hymesning SPEAKING modeli komponentlari va o‘zbek muloqotidan misollar*

J. Gumperz (1982) ishtirokchilar suhbat davomida bir-biriga “bu gapni qanday tushunish kerak”ligini ishora qiluvchi vositalarni kontekstuallashtirish belgilari (contextualization cues) deb atadi. Ularga intonatsiya, urg‘u, temp, pauza, kod yoki uslub tanlovi, formulaik iboralar kiradi. Gumperz ko‘rsatganidek, madaniyatlararo tushunmovchiliklarning anchagina qismi so‘zlarning ma’nosidan emas, aynan shu belgilar turli jamoalarda turlicha o‘qilishidan kelib chiqadi.

P. Brown va S. Levinsonning (1987) “yuz” (face) tushunchasiga asoslangan modeli tahlil uchun foydali atamalar tizimini beradi. Ammo bu model individual avtonomiyani markazga qo‘ygani uchun G‘arbga xos qarash sifatida tanqid qilingan. Masalan, Y. Matsumoto (1988) yapon materialida shaxsning guruh ichidagi o‘rni individual erkinlikdan muhimroq ekanini ko‘rsatdi. H. Spencer-Oatey (2008) taklif qilgan “munosabatlarni boshqarish” (rapport management) modeli ijtimoiy huquq va majburiyatlarni ham hisobga oladi. Bu yondashuv iyerarxiya va qarindoshlik munosabatlari kuchli bo‘lgan o‘zbek muloqotini tahlil qilishga ko‘proq mos keladi.

A. Wierzbicka (1991, 1997) va C. Goddard (Goddard & Wierzbicka, 2004) madaniyatga xos muloqot normalarini “madaniy skriptlar” ko‘rinishida, ya’ni tabiiy semantik metatil (NSM) vositasida, tadqiqotchining o‘z madaniyatidan imkon qadar xoli tarzda tavsiflashni taklif qilishdi. F. Sharifian (2011; 2017) esa madaniy sxemalar, kategoriyalar va metaforalarni jamoa a’zolari orasida notekis taqsimlangan bilim sifatida talqin qiladi. Bu tezis keyingi bo‘limlarda ko‘rsatiladigan metodologik xatolarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

V.I. Karasik (2002) diskursni shaxsiy (personal) va institutsional turlarga ajratadi va ularni til shaxsi hamda madaniy konseptlar bilan bog‘laydi. Bu ajratish tahlil qilinayotgan og‘zaki materialning qaysi muloqot sohasiga tegishli ekanini aniqlashda qo‘l keladi.

H. Sacks, E. Schegloff va G. Jefferson (1974) navbatlashish (turn-taking) tizimini tavsiflab, suhbat qat'iy tashkil etilgan hodisa ekanini isbotladilar. Lingvokulturolog uchun bu yondashuvning eng qimmatli tomoni shundaki,

talqin ishtirokchilarning o‘z reaksiyalari bilan tekshiriladi: replika qanday tushunilgani keyingi navbatda ko‘rinadi.

Yuqoridagi yondashuvlarni birlashtirib, og‘zaki diskursning lingvokulturologik tahlilini ikki savolga javob izlash sifatida ta’riflash mumkin: muloqot qanday tashkil etilgan (diskursiv qatlam) va u nima uchun aynan shunday tashkil etilgan (madaniy qatlam). Keyingi bo‘limda ana shu ikki savolga javob beradigan parametrlar ko‘rib chiqiladi.

**Tahlil parametrlari**

Quyida keltirilgan o‘nta parametr tahlilning majburiy ketma-ketligi emas, balki tekshiruv ro‘yxati vazifasini bajaradi. Konkret materialda ularning ba’zilari yetakchi, boshqalari ikkinchi darajali bo‘lishi mumkin.

1. *Muloqot vaziyati va konteksti.*_Tahlil har doim vaziyatni tavsiflashdan boshlanadi. Bir xil gap turli vaziyatda boshqacha madaniy yuk tashiydi. “Qalaysiz, ishlar yaxshimi?” savoli ko‘chada tasodifiy uchrashuvda shunchaki salomlashish formulasi bo‘lsa, uzoq vaqt ko‘rishmagan qarindoshlar orasida haqiqiy so‘rov bo‘lishi mumkin. Shuning uchun materialning metama’lumotlarida joy, vaqt, voqea turi va ishtirokchilar soni qayd etilmagan bo‘lsa, keyingi talqinlar asossiz qoladi. Hymesning SPEAKING modeli (1-jadval) bu bosqichda tekshiruv vositasi bo‘lib xizmat qiladi.
2. *Ishtirokchilar va ijtimoiy iyerarxiya.* O‘zbek muloqotida yosh, qarindoshlik darajasi, ijtimoiy maqom va jins nutq xulqini sezilarli darajada belgilaydi. Kim birinchi salom beradi, kim suhbatni boshlaydi va yakunlaydi, kim kimning gapini bo‘la oladi – bularning barchasi ierarxiyaning diskursdagi izlaridir. Tahlilchi har bir ishtirokchining nafaqat pasport ma’lumotlarini, balki aynan shu vaziyatdagi rolini ham qayd etishi kerak: oilada katta aka bo‘lgan kishi ishxonada kichik xodim bo‘lishi mumkin va uning nutqi rolga qarab o‘zgaradi.
3. *Murojaat shakllari va sizlash-senlash.* Murojaat tizimi og‘zaki diskursdagi eng boy madaniy belgilardan biridir. O‘zbek tilida qarindoshlik terminlari qarindosh bo‘lmagan kishilarga nisbatan ham keng qo‘llanadi: notanish kishiga “aka”, “opa”, “xola”, “amaki” deb murojaat qilinadi. “Ustoz”, “domla”, “hoji aka” kabi shakllar esa maqom va hurmatni ifodalaydi. Sizlash va senlash, ism bilan yoki ismsiz murojaat, “-jon” qo‘shimchasi bilan ifodalangan erkalash – bularning har biri munosabat masofasini belgilaydi. Tahlilda murojaat shaklining suhbat davomida o‘zgarishi alohida qimmatga ega: sizlashdan senlashga o‘tish yaqinlashuvni ham, keskin norozilikni ham bildirishi mumkin.

Shu o‘rinda nom tabusi ham e’tiborga olinishi lozim. An'anaviy muhitda kelin qaynota yoki qaynonasining ismini aytmaslikka harakat qiladi va o‘rniga “dadam”, “oyim” yoki bolasining nomi orqali bilvosita murojaat (“Anvarning dadasi”) qo‘llaydi. Bunday hodisalar transkriptda oddiy murojaat bo‘lib ko‘rinadi va madaniy izohsiz qolsa, tahlildan chetda qoladi.

4. *Xushmuomalalik va munosabatlarni boshqarish.* Taklif, iltimos, rad etish, tanqid va maqtov kabi nutq aktlari “yuz”ga tahdid soluvchi aktlar hisoblanadi va har bir madaniyatda ularni yumshatishning o‘z usullari bor. O‘zbek mehmondorchiligida taklif va rad etish ko‘pincha ritual xarakterga ega:

*Mezbon: Oling, oling, tortinmang.*

*Mehmon: Rahmat, to‘ydim, judayam mazali bo‘libdi.*

*Mezbon: Yo‘q, bunisidan bir oz oling, ataylab siz uchun qilgandik.*

*Mehmon: Mayli, ozgina...*

Bu yerda birinchi rad etish haqiqiy rad etish emas, balki odob talab qiladigan harakatdir. Mezbonning takroriy taklifi esa majburlash emas, samimiyat belgisi. Ushbu ketma-ketlikni Brown va Levinson modeli asosida talqin qilsak, takroriy taklif

mehmonning salbiy yuziga tahdid sifatida baholanadi. Spencer-Oatey (2008) taklif qilgan ijtimoiy huquq va majburiyatlar tushunchasi esa uni mezbonning majburiyatini bajarishi sifatida izohlaydi – bu talqin o'zbek madaniyatiga ancha yaqin.

5. *Nutq janrlari va ritual formulalar*. Og'zaki diskursda madaniyat eng zich holda ritual janrlarda saqlanadi. O'zbek muloqotida so'rashish ("Yaxshimisiz? Uydagilar tinchmi? Bolalar katta bo'lib qolishdimi?"), duo va fotiha, olqish, ta'ziya bildirish, to'y va ma'rakalardagi nutqlar shular jumlasidandir. Bunday janrlarda tahlilchi uch narsaga e'tibor berishi kerak: tarkibiy qismlar va ularning tartibi, majburiy va ixtiyoriy elementlar, ritualdan chetga chiqish hollari. So'rashish qisqartirilsa yoki tashlab ketilsa, bu ko'pincha shoshilish, norozilik yoki munosabatning sovuqligi sifatida qabul qilinadi. Bu esa ritual bo'lib ko'ringan formula aslida aloqani saqlash funksiyasini bajarishini ko'rsatadi.
6. *Madaniy konseptlar va kalit so'zlar*. Wierzbicka (1997) har bir madaniyatda uning qadriyatlarini zichlashtirib ifodalaydigan kalit so'zlar borligini ko'rsatgan. O'zbek og'zaki diskursida "andisha", "uyat", "hurmat", "mehmon", "qo'ni-qo'shni", "mahalla", "el-yurt" kabi so'zlar shunday vazifani bajaradi. Og'zaki diskurs tahlilida bu so'zlarning lug'aviy ma'nosidan ko'ra ular qaysi vaziyatda va qanday maqsadda ishlatilgani muhimroq. Masalan, "Odamlar nima deydi?" yoki "Uyat bo'ladi" iboralari suhbatda ko'pincha argument vazifasini bajaradi: jamoa fikriga murojaat qilish orqali suhbatdosh xulqi boshqariladi.
7. *Implitsitlik va aytilmagan mazmun*. E.T. Hall (1976) madaniyatlarni yuksak kontekstli va past kontekstli turlarga ajratgan. Yuksak kontekstli madaniyatlarda mazmunning katta qismi aniq so'z bilan emas, vaziyat, munosabat va umumiy bilim orqali uzatiladi. O'zbek muloqotida bilvosita iltimos, ishora orqali rad etish ("Ko'ramiz, bir maslahatlashib ko'rayin") va kinoya keng tarqalgan. Tahlilchi presuppozitsiya va implikaturalarni qayd etishi, ularni esa ishtirokchilarning keyingi reaksiyalari bilan tekshirishi kerak. Busiz talqin tadqiqotchining shaxsiy taxminiga aylanib qoladi.
8. *Prosodiya va diskursiv belgilar*. Gumperz (1982) ko'rsatganidek, intonatsiya, urg'u, pauza va temp gapning qanday tushunilishini belgilaydi. Bir xil "Xo'p" so'zi past va cho'ziq ohangda aytilsa norozilikni, qisqa va baland ohangda aytilsa tayyorlikni bildiradi. Diskursiv belgilar (D. Schiffrin, 1987) – o'zbek tilida "endi", "xullas", "yani", "qarang", "shunaqa gaplar" kabilar – fikrni bog'lash, navbatni ushlab turish va munosabat bildirish vazifalarini bajaradi. Ularning ishlatilish chastotasi va funksiyasi hudud, avlod va ijtimoiy guruhga qarab farq qiladi.
9. *Noverbal vositalar va sukut*. Og'zaki muloqot faqat ovozdan iborat emas. Qo'lni ko'krakka qo'yib salomlashish, kattalar oldida ko'z tikib qaramaslik, o'tirish tartibi (to'rga kim o'tiradi), non bilan bog'liq xatti-harakatlar – bularning barchasi diskursning madaniy qatlamiga kiradi. Sukut ham muhim: kattaning tanbehiga javob qaytarmaslik itoat va hurmat sifatida qabul qilinishi mumkin, boshqa madaniyat vakili esa buni rozilik yoki befarqlik deb talqin qilishi mumkin. Agar material faqat audio shaklida bo'lsa, tadqiqotchi bu cheklovni ochiq tan olishi va noverbal qatlam haqida xulosa chiqarmasligi lozim.
10. *Kod almashinuvi va til variantlari tanlovi*. O'zbekistonning ko'p tilli muhitida, ayniqsa shaharlarda, o'zbek va rus tillari orasida kod almashinuvi kundalik hodisadir ("Xo'p, normalno, kelishdik"). Gumperz (1982) kod almashinuvini kontekstuallashtirish belgilaridan biri deb

hisoblagan: til yoki shevaga o‘tish mavzu o‘zgarishini, rasmiylik darajasini yoki guruhga mansublikni bildirishi mumkin. Lingvokulturologik tahlilda kod almashinuvi “til buzilishi” sifatida emas, balki ma’lum maqsadga xizmat qiluvchi resurs sifatida o‘rganilishi kerak. Adabiy til va sheva o‘rtasidagi tanlov ham shu jihatdan qaraladi.

Parametrlarni bilish tahlilning faqat yarmi. Navbatdagi ehtiyotkorlik material va talqin bilan bog‘liq xatolardan qochishdan iborat. Quyidagi xatolar tajribali tadqiqotchilarda ham uchraydi.

Madaniyatni yaxlit va o‘zgarmas deb tasavvur qilish noto‘g‘ri tushunchani shakllantiradi. “O‘zbeklar shunday gapiradi” degan umumlashma deyarli har doim xato. Toshkentlik talaba va Xorazmdagi qishloq oqsoqolining muloqot normalari bir-biridan sezilarli farq qiladi. Sharifian (2011) madaniy konseptualizatsiyalar jamoa a’zolari orasida notekis taqsimlanganini ta’kidlaydi: har bir so‘zlovchi umumiy madaniy bilimning faqat bir qismiga ega. C. Kramsch (1998) ham madaniyatni tarixiy jarayonda o‘zgarib boruvchi hodisa sifatida ko‘rish lozimligini qayd etadi. Shuning uchun xulosalar materialning ijtimoiy-geografik doirasi bilan aniq cheklanishi kerak.

Tadqiqotchining o‘z madaniyati ham jarayonda to‘siq bo‘lishi mumkin. Ona tilida tahlil qilayotgan tadqiqotchi uchun eng katta xavf – ko‘zi o‘rgangan narsani ko‘rmaslik. So‘rashish, takroriy taklif yoki nom tabusi unga shunchalik tabiiy ko‘rinadiki, ularni tahlilga arziydigan hodisa deb hisoblamaydi. Begona madaniyatni o‘rganayotgan tadqiqotchida esa teskari xavf bor: oddiy hodisani ekzotik deb bo‘rttirish. Har ikki holatda ham boshqa madaniyat materiali bilan qiyoslash va ona tilida so‘zlashuvchilar bilan muhokama qilish yordam beradi.

Materialning tabiiyligiga e’tibor qaratmaslik natijalarning ishonchliligiga putur yetkazadi. Rolli o‘yin, so‘rovnoma yoki nutq aktini yakunlash testi (DCT) orqali olingan material so‘zlovchining nima deyishi kerak deb o‘ylaganini ko‘rsatadi, real vaziyatda nima deyishini emas. Teleko‘rsatuv va filmlardagi dialoglar ham ssenariy asosida yaratiladi. Bunday materialdan foydalanish mumkin, lekin uning tabiatini ochiq ko‘rsatish va tabiiy suhbat bo‘yicha xulosa chiqarmaslik kerak. Tabiiy suhbatni yozib olishda W. Labov (1972) ta’riflagan kuzatuvchi paradoksi yuzaga keladi: tadqiqotchi odamlar kuzatilmagan paytda qanday gapirishini bilmoqchi, ammo buni faqat kuzatish orqali bila oladi. Yozuvning dastlabki daqiqalarini tahlildan chiqarish yoki yozib olish uskunasiga ko‘nikish uchun vaqt berish bu ta’sirni kamaytiradi.

